

O‘ZBEKISTON – ITALIYA: OLIY DARAJADAGI UCHRASHUVLARDA ERISHILGAN KELISHUVLAR IZCHIL AMALGA OSHIRILAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Samarqand mezbonligidagi tashrifning asosiy tadbirlari 29-may kuni o‘tkazildi.

Samarqand shahridagi Kongress markazida Italiya Respublikasi Bosh vazirini rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Markaz oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tordii.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Harbiy orkestr ikki davlat madhiyalarini ijro etdi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng Kongress markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Melonining yuzma-yuz hamda rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

2023-yil iyun oyida Rim shahrida o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi, shu jumladan, yetkazib berilayotgan mahsulotlar turining kengaygani hisobiga qariyb uch barobar oshdi.

Qo‘shma korxona va loyihalar soni ikki barobar ko‘paydi. Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan metallurgiya, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, turizm va boshqa sohalarida o‘zaro manfaatli kooperatsiya yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston delegatsiyasi Venetsiyadagi biyennaleda faol ishtirok etdi, Florensiyada

Tashrif doirasida mehnat migratsiyasi sohasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan bitim imzolangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Uchrashuv yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha kompleks “yo‘l xaritasi»ni tayyorlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni Strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani qabul qildilar.

Ular huzurida tashrif doirasida imzolangan, jumladan:

- investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risida;
- strategik ahamiyatga ega xomashyo sohasida hamkorlik to‘g‘risida;
- migratsiya va harakatlanish erkinligi sohasida hamkorlik to‘g‘risida;
- barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, madaniy merosni saqlash sohalarida hamkorlik to‘g‘risida;
- Iqlim jamg‘armasi va Italiya qishloq xo‘jaligi konfederatsiyasi bilan hamkorlik, “Sogesid” va “Ansaldo” kompaniyalari bilan “yashil” rivojlanish sohasida hamkorlik to‘g‘risida;
- Tushia, Piza va Turin universitetlari bilan sheriklik to‘g‘risidagi ikki tomonlama bitimlarni almashish marosimi ham o‘tkazildi.

Shuningdek, rasmiy tashrif doirasida Italiya Milliy tadqiqotlar markazi, “SIMEST” va “Danieli” kompaniyalari, Peruja universiteti hamda boshqa tashkilotlar bilan qator hujjatlar imzolandi.

Oliy darajadagi O‘zbekiston — Italiya muzokaralari yakunlangach, Samarqand shahridagi ko‘chaga Rim shahri nomini berishga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu qaror chuqur tarixiy va madaniy aloqalar, strategik sheriklik munosabatlarining hozirgi yuksak darajasini inobatga olgan holda, shuningdek, O‘zbekiston va Italiya xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hurmat ramzi sifatida qabul qilinganini ta’kidladi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
G‘olib HASANOV,
O‘ZA maxsus muxbirlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
“MARKAZIY OSIYO — ITALIYA”
SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 30-may kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo — Italiya” formatidagi oliy darajadagi sammitda ishtirok etadi.

Tadbirda mintqa mamlakatlari yetakchilari va Italiya Bosh vaziri ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Kun tartibiga muvofiq, ko‘p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, “yashil iqtisodiyot”,

O‘ZA

O‘ZBEKISTON ITALIYANING
MARKAZIY OSIYODAGI ASOSIY HAMKORI

OLIY DARAJADAGI SAMARQAND SAMMITI
YAKUNLARIGA XORIJDAN MUNOSABATLAR

Italiya Bosh vaziri Jorja Melonining 28-29-may kunlari O‘zbekistonga tashrifi Rim va Toshkent o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich, shuningdek, Italiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi muloqotni chuqurlashtirish doirasidagi muhim voqea bo‘ldi. Asosiy tadbirlar mintaqaning xalqaro hamkorlik uchun tarixiy markazi bo‘lgan Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi.

▶ Davomi 2-betda

“MARKAZIY OSIYO – ITALIYA”
DAVLAT RAHBARLARI SAMMITI UMUMIY
MANFAATLARGA ASOSLANGAN KO‘P
TOMONLAMA HAMKORLIK PLATFORMASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni Qozog‘iston poytaxtida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi “Markaziy Osiyo — Italiya” uchrashuvida ishtirok etadi.

Qozog‘iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev raisligida bo‘lib o‘tadigan uchrashuvda Italiya Bosh vaziri Jorja Meloni va mintaqamizdagi barcha beshta davlat rahbarlari qatnashadi.

Bo‘ljak sammitning ahamiyati haqida gapirganda, zamonaviy dunyoda jahon tartibi o‘zgarishi fonida Markaziy Osiyo nafaqat mintaqaviy, balki global barqarorlik nuqtayi nazaridan ham haqli ravishda asosiy strategik va jadal rivojlanayotgan ko‘p tomonlama markaz maqomiga ega bo‘layotganini ta’kidlash kerak. Buni Yevropaning yetakchi davlatlarining mintaqaga, jumladan, Markaziy Osiyoga bo‘ljak Yevroosiyo barqarorligi arxitekturasining muhim elementi sifatida qaraydigan Italiyaning doimiy e‘tibori tasdiqlaydi.

Italiya “Markaziy Osiyo plus” formatiga qo‘shilgan va uni o‘zining tashqi siyosatidagi ustuvorliklariga moslashtirgan birinchi Yevropa Ittifoqi davlati bo‘ldi. An’anaviy ikki tomonlama muzokaralardan farqli o‘laroq, ushbu format mintaqaning barcha beshta davlatini Italiya bilan umumiy kun tartibi orqali birlashtiradi. Bu qadam sa‘y-harakatlarni o‘zaro hamkorlikning muayyan

kanallariga ajratmasdan, keng ko‘lamli masalalarni samarali muvofiqlashtirish imkonini beruvchi muntazam muloqotga asos soldi.

“Italiya — Markaziy Osiyo” birinchi konferensiyasi 2019-yil dekabr oyida Rimda Italiya tashqi ishlar vaziri Luiji Di Mayo tashabbusi bo‘lib o‘tkazilgan edi. Rim bir vaqtning o‘zida Markaziy Osiyo davlatlaridan beshta delegatsiya va Yevropa Ittifoqi vakillarini taklif etib, siyosat, iqtisodiyot, fan va madaniyatni birlashtiruvchi keng qamrovli muloqot o‘tkazishga tayyorligini namoyish etdi.

Uchrashuvning davomiyligi 2021-yil dekabr oyida TIV rahbarlarining Toshkentdagi uchrashuvi bilan yanada mustahkamlandi. Tadbirning ochilish qismida hamkorlik formati o‘zining dolzarbligi va amaliy foydasini isbotlagani ta’kidlangan. Anjumanlarni ikki yilda bir marta navbatm-navbat Italiyada va Markaziy Osiyo poytaxtlaridan birida o‘tkazish to‘g‘risidagi kelishuv formatdagi muntazamlilik hamda izchillikni ta’minladi.

▶ Davomi 2-betda

BIZ TANLAGAN YO‘L

TAFAKKURIMIZDA
“YASHIL CHIROQ” YONSIN

Insoniyat uzoq vaqt sukut saqladi. Bu yerda “sukut” jumlasini zinhor taraqqiyotga daxldor emas. Zotan, bugun ana shu taraqqiyot mevalaridan barchamiz bahramandmiz. Aql-zakovat mahsuli bo‘lmish eng zamonaviy, eng ilg‘or texnologiyalar har kuni, har soatda xizmatimizda. Hatto bugun yangilik bo‘lgan biror ixtiro ertaga eskirib qolyapti. Shiddatli, taraqqiyotning eng yuqori cho‘qqisiga chiqayotgan zamonaviy dunyoning bu kabi ishlariga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q. Aqlimiz shoshib, ba‘zan hayratimiz oshadi.

▶ Davomi 3-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON ITALIYANING MARKAZIY OSIYODAGI ASOSIY HAMKORI

OLIY DARAJADAGI SAMARQAND SAMMITI YAKUNLARIGA XORIJDAN MUNOSABATLAR

Boshlanishi 1-betda

Ekspertlarning ta'kidlashicha, *Jorja Meloni* mintaqaga rasmiy tashrif uchun birinchi davlat sifatida O'zbekistonni tanlagani Toshkentning Markaziy Osiyodagi asosiy hamkor sifatidagi alohida



Antonio Alonso, San-Pablo universiteti Ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori (Ispaniya):
— Ushbu tashrif murakkab dunyoda o'zaro tinch hamkorlik va farovonlikka umid uyg'otadi. Uning asosiy maqsadi nafaqat Toshkent va Rim o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish va kengaytirish, balki Italiya tomonidan Prezident Shavkat Mirziyoyevning muhim islohotlarini qo'llab-quvvatlashning tasdiq'idir.
Shu bilan birga, *Jorja Meloni* nafaqat Italiyani, balki Yevropa Ittifoqining ham muhim ovozi ekanini unutmastlik kerak. Italiya o'z iqtisodiyoti va *Jorja Meloni* Bosh vazir sifatida o'ynagan roli tufayli Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biridir.
Samarqanddagi Kongress markazida bo'lib o'tgan muzokaralar O'zbekiston — Italiya strategik sheriklik munosabatlari

Ilgar Velizade, Ozarbayjonlik taniqli siyosatshunos va jurnalist:

— Davlatlararo munosabatlarda oliy darajadagi tashriflar almashinuvi alohida ahamiyatga ega bo'lib, munosabatlar dinamikasini yaqqol namoyon etadi.
Bugun ko'plab davlatlar O'zbekistonning Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi xalqaro munosabatlar tizimidagi faol o'rni va pragmatik tashqi siyosatini yuksak baholab, ushbu mamlakat bilan turli sohalarda aloqalarni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda.
Ular orasida O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi va Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik to'g'risidagi bitimni tuzish istagini qo'llab-quvvatlagan Italiya ham rasmiy Toshkentning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va YI bilan yaqinlashish bo'yicha tashqi siyosat kursini qo'llab-quvvatlashini namoyish etdi.
Shu bois, Bosh vazir *Jorja Melonining* O'zbekistonga rasmiy tashrifini Italiya va O'zbekiston o'rtasidagi

o'rnidan darak beradi. Bu, shuningdek, har ikki tomonning faol siyosiy muloqotga kirishish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalar bo'yicha sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish istagidan dalolatdir.

yuksak darajada ekanini tasdiqladi.
Samarali muloqot davomida tomonlar Yevropa Ittifoqi institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va “Markaziy Osiyo — Italiya” sammitiga faol tayyorgarlik ko'rishga kelishib oldilar.
Mehnat migratsiyasi to'g'risidagi bitim va keng qamrovli “yo'l xaritasi”ni ishlab chiqish to'g'risidagi bitim imzolangan ikki davlatning niyati va munosabati qanchalik jiddiyligini tasdiqlaydi.
Shu nuqtayi nazardan, Yevropa Ittifoqida Italiya Vengriya, Fransiya va Germaniya qatorida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston bilan aloqalarini mustahkamlash jarayonini faol davom ettirayotganini alohida ta'kidlash joiz.
Muntazam siyosiy muloqotlar, o'zaro tovar ayirboshlash hajmining o'sishi — bularning barchasi yaqinlashuv uchun siyosiy iroda mavjud bo'lsa, madaniy-geografik masofalar muhim rol o'ynamasligining yaqqol dalilidir.
Xulosa o'rinda aytish kerakki, Italiya Bosh vaziri *Jorja Melonining* O'zbekistonga tashrifi va Samarqandda o'tkazilgan muzokaralar ikki davlat munosabatlarida yangi sahifa ochmoqda. Bu har qanday qiyinchiliklarga qaramay, siyosiy iroda va konstruktiv muloqot orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik hamda o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi ta'sirchan natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi.



strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanishining davomi sifatida baholash mumkin. Bu “kalit” ko'p jihatdan Italiya uchun butun Markaziy Osiyoni ochib beradi.
Bunday sharoitda Ozarbayjon kabi ishonchli sherik va nufuzli davlat qardosh O'zbekiston ham xalqaro tashkilotlar doirasida samarali ikki tomonlama munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikka ustunlik berib, oqilona va uzoqni ko'zlab ish tutmoqda.
O'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari nuqtayi nazardan O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida energiya ta'minotini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirishda Italiyaning asosiy hamkori hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy tarzda bir-birini to'ldirishning yuqori darajasi va samarali hamkorlikka yo'naltirilganligi bilan ajralib turadigan Ozarbayjon — Italiya munosabatlarining hozirgi holatini misol qilib keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tokon Mamitov, Qirg'iziston Prezidenti huzuridagi Strategik tashabbuslar milliy instituti ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori, professor, taniqli siyosatshunos:



— Tashrif mamlakatlar o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Bu nafaqat oliy darajadagi siyosiy ishonchni namoyon etadi, balki keyingi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan o'zaro manfaatli hamkorlikning barqaror dinamikasini ham tasdiqlaydi.
Mazkur tashrif 2023-yilda O'zbekiston Prezidentining Italiyaga va Italiya Prezidentining O'zbekistonga tashriflaridan boshlangan yuqori darajadagi intensiv muloqotni muntian davom ettirmoqda. Bu erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga qo'shimcha sur'at bag'ishlab, siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va madaniyat sohalarida yangi qo'shma tashabbuslarga zamin yaratadi.
Asosiy e'tibor, albatta, iqtisodiyot va sarmoyaga qaratilgan. So'nggi yetti yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. 2023-yilda imzolangan umumiy qiymati 9,2 milliard yevro bo'lgan

shartnomalar Italiya biznesining O'zbekistonga ishonchi va qiziqishi ko'rsatkichi bo'ldi. Yuqori texnologiyalar, agrosanoat, energetika, turizm, yengil sanoat va temir yo'l transporti hamkorlikni chuqurlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridir.
Shuningdek, gumanitar va ta'lim sohasidagi hamkorlikni ham alohida ta'kidlash lozim. Italiya universitetlari filiallarining muvaffaqiyatli faoliyati, rektorlar forumlari, madaniy ko'rgazmalar, qo'shma ilmiy tadbirlar o'tkazilayotgani xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga mustahkam zamin yaratmoqda.
Italiya Bosh vazirining tashrifi parlamentlararo muloqotni, hududlar o'rtasidagi hamkorlikni, yoshlar va sport almashinuvarlari chuqurlashtirishga ham katalizator bo'lib xizmat qiladi.
O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi strategik mavqeini hisobga olgan holda *Jorja Melonining* tashrifi nafaqat ikki tomonlama kun tartibi, balki Yevropa Ittifoqining butun mintaqasi bilan o'zaro hamkorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.
Italiya 2019-yilda vazirlar darajasida “Markaziy Osiyo — Italiya” muloqotini o'tkazish tashabbusi bilan chiqqan Yevropaning birinchi davlati bo'ldi. Shu ma'noda, Rim Bryussel va Toshkent o'rtasidagi “ko'pri” bo'lib, Yevropa platformasida mintaqamanoqatlarini ilgari surishda faol rol o'ynaydi.
Albatta, tashrif ikki tomonlama hamkorlik orqali Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo aloqalarini mustahkamlash kontekstida strategik qarashlar almashinuviga yordam beradi.
Italiya Bosh vazirining tashrifi O'zbekistonga tashrifi nafaqat diplomatik voqea, balki barqaror rivojlanish, o'zaro hurmat va manfaatli kelajakka yo'naltirilgan strategik sheriklikning yetuklik ramzidir. Bu yaqinroq, tizimli va uzoq muddatli O'zbekiston — Italiya hamkorligi yo'lidagi yangi qadam bo'ladi.

“

O'zbekistonning YI, jumladan, Italiya bilan keng hamkorligi yirik Yevroosiyo loyihalari doirasida Xitoy va Yevropa manfaatlari mutanosib bo'lishi mumkin bo'lgan uch tomonlama hamkorlik imkoniyatlarini ochib beradi.



Yan Chen, Shanxay global boshqaruv va mintaqaviy tadqiqotlar akademiyasi direktori (Xitoy):
— Italiya Bosh vazirining O'zbekistonga tashrifi Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy ishtirokini kuchaytirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholanmoqda. Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biri rahbarining Samarqandga tashrifi O'zbekistonga mintaqadagi asosiy hamkor sifatida xalqaro qiziqish ortib borayotganini ko'rsatib, uning ishonchli va mustaqil ishtirokchi sifatidagi maqomini tasdiqlaydi.
Tashrif mazmunini, jumladan, investitsiya, “yashil” energetika, sanoat kooperatsiyasi, madaniyat va ta'lim sohalaridagi kelishuvlarning imzolaniishi islohotchi O'zbekistonning barqarorligi va ochiqligini aks ettiruvchi ijobiy signaldir. Rasmiy

Toshkentning Yevropa yo'nalishi Xitoy bilan strategik sheriklikni to'ldiradigan, ko'p vektorli siyosatga sodiqligini alohida ta'kidlash lozim.
Shuningdek, Italiya tomonining iqtisodiy pragmatizmi ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, Italiyaning O'zbekistonga qiziqishi strategik sheriklik xarakteriga ega ekanligini namoyish etadi. Ushbu tashrif YIning mintaqasi bilan hamkorlikni an'anaviy Yevroatlantika ta'siridan tashqarida, ayniqsa, Yevroosiyo infratuzilmasi, energetika va logistika resurslari uchun o'sib borayotgan global raqobat sharoitida chuqurlashtirishga qaratilgan keng siyosatning bir qismidir.
O'zbekistonning YI, jumladan, Italiya bilan keng hamkorligi yirik Yevroosiyo loyihalari doirasida Xitoy va Yevropa manfaatlari mutanosib bo'lishi mumkin bo'lgan uch tomonlama hamkorlik imkoniyatlarini ochib beradi.
Umuman olganda, Italiya Bosh vazirining tashrifi O'zbekistonning mintaqaviy siyosat va jahon iqtisodiyotidagi roli ortib borayotganining tabiiy natijasi sifatida baholanmoqda. Bu ko'p tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Rasmiy Toshkentning geosiyosiy salohiyatini oshiradi hamda Xitoy, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida, ayniqsa, barqaror rivojlanish, texnologiya va logistika sohalarida qo'shma tashabbuslar uchun qo'shimcha o'sish nuqtalarini yaratishi mumkin.

Osiyodan Yevropaga qayta tiklanadigan energiyani eksport qilishga qaratilgan tashabbus hisoblangan “Yashil energiya koridori” loyihasini alohida ta'kidlamoqchiman. Loyiha bir qator davlatlar, jumladan, Ozarbayjon va O'zbekistonni Yevropa bozoriga toza elektr energiyasini uzatish bo'yicha samarali infratuzilmani yaratish orqali o'z sa'y-harakatlarini birlashtirishga jalb qiladi.
O'zbekiston va Ozarbayjonning ulkan salohiyatini inobatga olgan holda, birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali ular Yevropaning energiya o'tish jarayonining yo'naltiruvchisiga aylanishi va qit'ani toza, ishonchli va arzon energiya bilan ta'minlashi mumkin.
Bunday loyihalar, menimcha, qardosh O'zbekiston va Ozarbayjonga iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha global sa'y-harakatlarga hissa qo'shish imkonini beradi, bu Parij kelishuvi maqsadlari va boshqa xalqaro ekologik majburiyatlarga mos keladi.
Qolaversa, bugungi kunda xalqaro moliya institutlari qayta tiklanadigan energiya manbalariga oid loyihalarga sarmoya kiritishga tayyor. Bu mamlakatlarimiz uchun energiya tizimlari va infratuzilmasini rivojlantirish uchun kapital jalb qilish imkoniyatlarini ochib beradi.



Shekriyar Xon, Milliy muloqot forumi tahlil markazi ijrochi direktori (Pokiston):
— Italiya Bosh vaziri *Jorja Melonining* O'zbekistonga rasmiy tashrifi va Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Samarqandda o'tkazgan muzokaralarini katta qiziqish bilan kuzatdim. Tashrif nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy irodaning ifodasi, balki O'zbekistonning Yevroosiyo savdo, texnologik almashinuv va barqaror rivojlanish tizimidagi strategik ahamiyati ortib borayotganining ko'zgusi bo'ldi.

Avvalo, Bosh vazir *Jorja Melonining* Markaziy Osiyoga birinchi tashrifi uchun O'zbekiston tanlanishining o'zi diplomatik ishora ekanligini ta'kidlamoqchiman. Italiya nafaqat iqtisodiy hamkor, balki mintaqaviy jarayonlarning ishtirokchisi bo'lishga qiziqish bildirmoqda.
Strategik sheriklikni mustahkamlash to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya va keng ko'lamli sohalarini o'z ichiga olgan aniq kelishuvlar to'plamining imzolangan tomonlar niyatlari qanchalik jiddiy ekanining ishonchli dalilidir. Bu ikki davlat amaliy mazmunga asoslangan barqaror hamkorlik arxitekturasini barpo etishga intilayotganidan dalolat beradi.
O'zbekistonda texnologik sheriklik va innovatsion ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha muzokaralarda alohida e'tibor qaratilayotgan masalalarni ta'kidlamoqchiman.
Bundan tashqari, tashrif muhim geoiqtisodiy ahamiyatga ega. YIning barqaror ta'minot yo'nalishlari va muhim resurslarga qiziqishi ortib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston nafaqat logistika markazini, balki uzoq muddatli hamkorlik uchun siyosiy barqaror platformani ham taklif etadi.
Umuman olganda, Italiya Bosh vazirining Samarqandga tashrifi zamonaviy diplomatiya nafaqat siyosat, balki eng avvalo iqtisodiyot, texnologiya, fan va madaniyat ekanligining yorqin dalili bo'ldi. O'zbekiston bu jarayonda ishonchli hamkor sifatida harakat qilmoqda. Bu tashrif nafaqat O'zbekiston bilan Italiya, balki Markaziy Osiyo va butun Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalarni yanada chuqurlashtirish uchun yangi turtki bo'ladi.

“Dunyo” AA

“MARKAZIY OSIYO – ITALIYA” DAVLAT RAHBARLARI SAMMITI UMUMIY MANFAATLARGA ASOSLANGAN KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK PLATFORMASI

Boshlanishi 1-betda

Har bir sammit bir-birini to'ldiruvchi ikkita bosqichdan iborat. Birinchisi, vazirlar konferensiyasi bo'lib, yalpi majlis va siyosiy hamda iqtisodiy hamkorlik, shuningdek, sanoatning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan ikkita tematik seksiyani o'z ichiga oladi. Ikkinchisi — ekspertlar davra suhbat bo'lib, unda tahliliy markazlar, oliy o'quv yurtlari va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ilmiy-texnikaviy va madaniy tashabbuslarni muhokama qiladilar. Ushbu tuzilma yirik infratuzilma loyihalarini ham, akademik va gumanitar almashinuv dasturlarini ham tezkor muvofiqlashtirish imkonini beradi.

2024-yil may oyida bo'lib o'tgan uchrashuvda Italiya tomoni “yashil” energiyaga o'tishga alohida e'tibor qaratdi. Italiya kompaniyalari hamkorlar bilan birgalikda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarini taqdim etdi. Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, cho'llanishga qarshi kurashishda suv resurslarini boshqarishning raqamli texnologiyalarini joriy etish masalalari muhokama qilindi. Vazirlar, shuningdek, Yevropaning “Global darvoza” tashabbusi doirasida Transkaspriy transport-logistika yo'lagini rivojlantirish istiqbollarini ko'rib chiqdilar hamda Kaspiy dengizida terminallar qurish va port xablarini modernizatsiya qilish bo'yicha qo'shma texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlashga kelishib oldilar.
Tomonlar iqtisodiy yo'nalishda ham faollikni namoyish etmoqda. Bugun gap nafaqat savdo-sotiq, balki tarkibiy investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi haqida ham ketmoqda. Ayniqsa, italyan biznesining mudofaa sanoati, energetika, mashinasozlik

“

Oliy darajadagi uchrashuv 3-4-aprel kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan birinchi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammitida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish, xususan, 12 milliard yevrolik investitsiya paketini ishlab chiqishga ham qo'shimcha turtki berishi mumkin.

va agrosanoat majmuasidagi loyihalarga qiziqishi ortib borayotgani diqqatga sazovordir. Bu Italiyaning mintaqaning ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvini o'zgartirishda ishtirok etish istagini ko'rsatadi.

“

Gumanitar sohadagi hamkorlik yana bir muhim ustuvor yo'nalishdir. Italiya G'arb va mintaqasi o'rtasida ko'pri” vazifasini o'taydi, tibbiyot, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida tajriba almashishga yordam beradi. Uchrashuv davomida Piza va Milandagi yetakchi universitetlarda kadrlarni birgalikda tayyorlash, stajirovkalarni tashkil etish, barqaror rivojlanish va raqamlashtirish bo'yicha ilmiy-texnik forumlar o'tkazish to'g'risida bayonnomalar imzolandi.

Afg'onistondagi beqarorlik va yetakchi davlatlar bilan o'zaro hamkorlik formatlarining o'zgarishi fonida Italiya diplomatiyasi Markaziy Osiyo masalalarini tashqi siyosat dasturiga tobora ko'proq kiritmoqda. Italiya vakillari Markaziy Osiyo barqarorligi mavhum kategoriya emas, balki qo'shni beqaror hududlardan kelayotgan transmilliy terrorizm, narkotrafik va boshqa tahdidlarni jilovlashning amaliy sharti ekanini ta'kidlayotgani bejiz emas.

YIning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakillari Peter Burian va Toyvo

Xakalaning ishtiroki Bryussel muloqotni barcha beshta davlatning sa'y-harakatlari va manfaatlarini birlashtirish imkonini beruvchi strategik ahamiyatga ega Yevropa loyihasi sifatida ko'rishini ta'kidladi. Diplomatik vakolatxonalarining yuklamasi ortib borayotganini inobatga olgan holda Italiya TIVning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etildi. Mazkur lavozimga faxriy diplomat Janluka Grandi tayinlandi. Uning vakolatiga sammitlarni muvofiqlashtirish, biznes missiyalarini qo'llab-quvvatlash, ilmiy va ta'lim forumlarini tashkil etish hamda tegishli tahliliy organlar bilan hamkorlik qilish kiradi.
Muloqot, shuningdek, yagona platformani ifodalaydi, uning doirasida Markaziy Osiyo ajralmas ko'p tomonlama mintaqasi sifatida tan olinadi. Shu munosabat bilan rasmiy Rim mintaqasi davlatlarining xavfsiz va barqaror rivojlanishidan manfaatdor hamda doimiy ravishda umumevropa siyosatini faollashtirish tarafdori.

“

O'tgan yillar yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, ishonch bilan aytish mumkinki, “Markaziy Osiyo — Italiya” formati Rimdagi ilk uchrashuvdan barqaror, keng qamrovli hamkorlik platformasigacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. Bu vaqt mobaynida u tomonlar o'rtasida yuqori darajadagi ishonch, shuningdek, amaliy hamkorlikni kengaytirish istagini namoyon qilidi.

Bugungi kunda mazkur tashabbus Markaziy Osiyo davlatlari va Italiya o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqotning samarali mexanizmi bo'lib, muhim loyihalarni ilgari surish imkonini beradi. Format doirasida erishilgan kelishuvlar, shuningdek, oliy darajadagi rejalashtirilgan aloqalar mintaqaning barqaror rivojlanishiga qo'shimcha turtki berish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash va sheriklikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.
Ostonada bo'lib o'tadigan “Markaziy Osiyo — Italiya” sammiti qayta tiklanadigan energiya manbalari, transport yo'laklarini rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish va logistikani raqamlashtirish kabi muhim yo'nalishlarda aniq loyihalarni muvofiqlashtirish platformasiga aylanishi kutilmoqda. Sammitda “yashil” energiyaga o'tish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi shubhasiz. Ishtirokchilar mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va karbonizatsiyasiz bo'yicha qo'shma strategiyani ishlab chiqishlari mumkin bo'ladi.
Oliy darajadagi uchrashuv 3-4-aprel kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan birinchi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammitida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish, xususan, 12 milliard yevrolik investitsiya paketini ishlab chiqishga ham qo'shimcha turtki berishi mumkin.
Ostona sammiti yagona strategik mintaqasi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari va Italiya uchun umumiy manfaatlariga asoslangan tizimli hamda keng qamrovli o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish imkoniyatidir.

“Dunyo” AA

BIZ TANLAGAN YO‘L

“Yashil makon” loyihasi doirasida ayni paytga qadar 872 million tup daraxt va buta ko‘chati ekildi. Orolbo‘yi mintaqasida 2 million gektar yashil qoplama barpo etildi. Bu boradagi ishlar yil sayin jadallashib boryapti. Masalan, 2021-yilda 86 million tup ko‘chat o‘tqazilgan bo‘lsa, 2024-yilda 227 million tup daraxt ekildi.



“Yashil iste’mol” nima degani?

Ammo bu yo‘nalishdagi ishlar aniq maqsad, uzviy reja asosida, keng miqyosda olib borilsa, nur ustiga nur bo‘ladi. Prezidentimizning shu yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ayni shunga xizmat qiladi. Olimlar, ekolog mutaxassislar, ilm ahli, umuman, jamoatchilik ushbu hujjatga yuqori baho berayotgani bejiz emas. Ya‘ni endi ekologiya masalasida butun boshli konsepsiya yaratilyapti.

Qaror orqali yurtimizda faqat o‘qituvchi malaka oshirmay, ekologik masalaga yondashuvning o‘zi ham o‘zgaradi. Eng muhimi, bu tajirovkalar bir yoki ikki kishini emas, butun ta’lim tizimi, jamiyat va ekotariyani o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Hujjatga asosan, qilinadigan ishlaridan ko‘zlangan aniq maqsad belgilab olindi. Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisida, umumiy o‘rta ta’lim tizimi tashkilotlarining 4,2 million o‘quvchisida ekologik ta’lim-tarbiya va madaniyatni yuksaltirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Albatta, bu maqsadlarga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun kelgusi besh yilda tarmoqda uzviy islohotlar olib borish, har yili alohida ishlab chiqiladigan “yo‘l xaritalari” orqali ishlar tizimli bajariladi.

Sohada o‘zgarish va yangilanishlar, tub islohotlar qilinishi mo‘ljallanmoqda. Talabalar va o‘quvchilar o‘rtasida “Yangi daraxt — yangi nafas” ekochempionati, har oyda bir marotaba “Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlari tashkil etiladi. Albatta, tizimli bu tadbirlar yurtdoshlarimizda daraxt ekish, ko‘cha-ko‘ydgagi chiqindilarni tozalash bo‘yicha odat shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, konsepsiyada yurtdoshlarimiz kundalik hayotida “Yashil iste’mol” madaniyatini shakllantirish uchun turli reklama, targ‘ibot materiallarini tayyorlash va e‘lon qilish vazifasi qo‘yilmoqda. Avvalo, “Yashil iste’mol” qanday madaniyat ekanini bilib olish zarur. So‘ng uning foydasi to‘g‘risida xulosa chiqarsa bo‘ladi. Yashil iste’mol atrof-muhitni himoya qiladigan va tabiiy resurslardan barqaror foydalanadigan mahsulotlar va xizmatlarga ustunlik berishdir. Ushbu yondashuv ekologik toza mahsulotlar ko‘payishiga xizmat qiladi. Masalan, organik mahsulotlar narxi balandroq bo‘lsa-da, talabni oshirish yoki bo‘lmasa qayta ishlanadigan mahsulotlar: plastmassa o‘rniga shisha yoki qog‘oz mahsulotlardan foydalanish yashil iste’mol madaniyatidir.

Shuningdek, bozorda energiyatejamkor uskunalar orqali tayyorlangan narsa-buyumlarni ko‘proq xarid qilish hamda bir marta ishlatiladigan polietilen paketlar o‘rniga qayta ishlatiladigan qoplamani tanlash zarur. Yurtdoshlarimizda bunday odatlar shakllanishi tadbirkorlarning ham faoliyatida tabiatga zarar yetkazilmasligini rag‘batlantiradi.

Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar “yashil iste’mol” madaniyatiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ekologik madaniyatni shakllantirish uchun “Ekolog olimlar hamjamiyati”, O‘zbekiston ekovolontyor talabalari harakatini tashkil etish zarurligi ham qayd etilgan. Olimlar jamiyati tuzilishi ekologik muammolarni va ekologik madaniyatni shakllantirish usullari ilmiy o‘rganilishi va bu ishlarning samaradorligi o‘rtishiga xizmat qilsa, ekovolontyor talabalar harakati tuzilishi tabiatni muhofaza qilishda yoshlarning qat‘iy ovozi shakllantiradi. Xorij filmlarida talabalarning turli daraxtlar ekish, parvarishlash, tabiatga qiron keltirayotgan yoki atmosferaga zarar yetkazayotgan korxona-tashkilotlar faoliyatiga qarshi chiqishlarini tomosha qilganmiz. Bizning ekovolontyorlar ham munosabatini mana shunday qat‘iy bildiradigan faol, bilimli yoshlardan iborat bo‘lishiga ishonamiz. Shuningdek, tuzilma yoshlarning tabiatga mehr-muhabbat qo‘yishiga zamin yaratadi.

Albatta, bunday sa‘y-harakatlar va islohotlar soha taraqqiyotini keyingi bosqichga ko‘taradi. Qad rostlayotgan yangi O‘zbekistonimizning yashil diyorga aylinishiga xizmat qilib, avlodlarimizning yanada farovon hayot kechirishini ta‘minlaydi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas, balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz... Bugungi kunda bizning vazifamiz — kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishdan iborat”.

Mazkur fikrlar, tashabbus va g‘oyalar, sa‘y-harakatlar bizning atrof-muhitni asrash, muvozanatdan chiqayotgan ekologiyani saqlash borasidagi o‘ziga xos yo‘limizdir. O‘ylaymizki, bu tajriba shu paytgacha ona tabiatga yetkazilgan zarar o‘rmini qoplashda qo‘l keladi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Lekin insoniyat o‘n yillar, balki asrlar mobaynida bir masalaga, ya‘ni atrof-muhit, tabiatni asrash, ekologiyaga bu qadar e‘tibor qaratmadi. Tabiat ne‘matlariga noto‘g‘ri munosabatda bo‘ldi. Daraxtlar ayovsiz kesildi. Chiqindilar har joyga ulotirildi. Suv resurslaridan besamar foydalanildi. Natijada dunyo miqyosida global isish, ozon qatlami yemirilishi, qurg‘ochilik, atrof-muhit ifloslanishi kabi muammolar paydo bo‘ldi.

To‘g‘ri, muammolar ko‘tarilgan xalqaro tadbirlar, anjumanlar, konferensiyalar bot-bot uyushtirib turildi. Bu amaliyot hozir ham bor. Hatto ekologiya, tabiat, yer, suv, tuproqqa oid xalqaro ahamiyatga molik hujjatlar mavjud. Nufuzli xalqaro tashkilotlarning bu boradagi chaqiriqlari, tashabbuslari ham qulog‘imizga tez-tez chalinib turadi. Biroq negadir natija sezilarli emas. Uzoqqa bormay, yaqinda kuzatilgan jazirama ortidan kelgan changli shamolni bir eslaylik.

Ochig‘i, terlangan yuziga yopishgan changni arta turib, xayolidan “bunday holatlar ko‘payib ketmayaptimi?” degan o‘y o‘tmagan inson kam bo‘lsa kerak. Ha, so‘nggi paytlarda bunday holatlar ancha ko‘paydi. Yilning istalgan faslida to‘zon ko‘tarilishiga, anomal issiq yoki sovuqqa tez-tez duch kelyapmiz. Tabiat hodisasi dunyoning istalgan joyida istalgan vaqtda ro‘y berishi mumkin. Muammo ham shunda: ekologik o‘zgarishlar endi hech bir shaxs, hech bir davlatni chetlab o‘tmayapti. Jumladan, bizni ham. Zotan, Orol fojiasi bilan uzoq yillardan beri kurashib kelayotgan xalqimiz bu muammolar qanday oqibatlarga olib kelishini teran anglaydi. Bu haqda Prezidentimiz joriy yil 4-5-aprel kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro iqlim forumida bunday dedi: “Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri — Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz”.

Darhaqiqat, Orol dengizining qurishi dunyodagi eng yirik ekologik fojialardan biri bo‘ldi. U nafaqat O‘zbekiston, balki mintaqadagi barcha davlat uchun qator ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar muammolarni keltirib chiqardi. Hududdan havoga ko‘tarilayotgan zararli tuz zarrachalari Antarktida sohillari, Grenlandiya muzliklari, Norvegiya o‘rmonlari va Yer sayyorasining boshqa joylariga ham yetib bordi.

O‘tgan asrning 60-yillarida maydoni o‘rtacha 68,9 ming kvadrat kilometr, suv hajmi 1083 kub kilometr, uzunligi 426 kilometr, eni 284 kilometr, eng chuqur nuqtasi 68 metrni tashkil etgan dengizdan yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlangan. Mahalliy aholining katta qismi baliq va baliq mahsulotlarini ovlash, qayta ishlash, yetkazib berish bilan shug‘ullangan.

Afsuski, baliqchilik va boshqa tarmoqlar taraqqiy etgan dengiz o‘rnida maydoni 5,5 million gektarga teng bo‘lgan cho‘l — Orolqum paydo bo‘ldi. Dengiz tubidan ko‘tariladigan qum va tuz bo‘roni borgan sari avj oldi. Hududdan har yili bir necha ming kilometr masofagacha tarkibida nafaqat atrof-muhit, balki inson salomatligi uchun o‘ta zararli bo‘lgan 100 million tonnadan ortiq qum, tuz zarralari va kimyoviy birikma qoldiqlari tarqala boshladi. Qurigan dengiz hududi bizga tegishli. Shu bois, O‘zbekiston avvaldan bu borada tashabbuskor bo‘lib keldi. Mamlakatning atrof-muhitni asrash, tabiatni muhofaza qilish, ekologiyaga oid takliflari keyingi yillarda ancha faollashdi. Ayniqsa, Prezidentimiz

tomonidan Orol dengizining qurishi natijasida mintaqada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etishga jiddiy e‘tibor qaratilayotgani “asr fojiasi” ko‘lamini kamaytirishga hissa qo‘shayotgani diqqatga sazovor. Xususan, davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72- va 75-sessiyalarida Orol dengizi inqirozi chegaraga bilmaydigan global ekologik muammolardan biri ekanini ta’kidlab, dunyo hamjamiyatini ogohlikka chaqirdi. Ana shunday sa‘y-harakatlar natijasi o‘laroq, 2018-yilda BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘psheriklik Trast fondi tashkil etildi.

Shuningdek, 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida Prezidentimiz taklifiga binoan Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi. Bular — katta natija. O‘zbekistonning ushbu yo‘nalishdagi tashabbuslari ichkaridan tashqariga chiqayotgani, xalqaro doirada tan olinayotgani



bo‘ldi. Davlat tomonidan ekofaol fuqarolarni rag‘batlantirish tizimi yaratildi. Bunday islohotlar odamlarda daraxt ekish orqali tabiatni tiklashga ishtiyoqni kuchaytiraypti. Xususan, 2025-yilning bahorgi mavsumida mamlakat bo‘ylab jami

136 million tup daraxt va buta ko‘chati ekildi. Yil so‘ngiga qadar “Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Mening bog‘im” loyihasi doirasida 200 million tup daraxt hamda buta ekilishi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil maydon” barpo etilishi va Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonlar 2,1 million gektarga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bu ishlar hisobot uchun ko‘r-ko‘rona qilinaotgani yo‘q. Hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda unga mos ko‘chatlar yerga qadalamoqda. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining tanlangan hududida sho‘r va suvsizlikka chidamli o‘simlik (galofit) bog‘lari tashkil etilyapti. Ayrim hududlarda “in-vitro” laboratoriyalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, hududlarning tabiiy sharoitiga mos turlar yetishtirilmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida keyingi besh yilda har yili 200 million tupdan daraxt va buta ko‘chati hamda qalamchasini ekish, respublika hududidagi yashillik darajasini 30 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Teshik ko‘zani
suvga to‘ldirib bo‘lmaydi

Yuqorida keltirilgan raqam va faktlardan tez orada mamlakatimizda yashil hududlar maydoni kengayishiga ishonamiz. Ammo tanganing boshqa tomoni ham bor. Gap shundaki, keyingi yillarda daraxtlarni kesishga bir necha marotaba moratoriy joriy qilinganiga qaramay, yil sayin noqonuniy daraxt kesilishi,



ekan, yuqoridagi sa‘y-harakatlar teshik ko‘zani suv bilan to‘ldirishga urinishday bo‘lib qoladi.

Shuning uchun ham ekologik muammolarni hal etish uchun, birinchi navbatda, yurtdoshlarimizga vaziyatning og‘ir oqibatlarini anglatish, tabiatga muhabbatni kuchaytirish, odamlarning ong tufakkuri, dunyoqarashi, ekologik madaniyatini shakllantirish lozim. Ta’kidlanganidek, xalqning o‘y-fikri, dunyoqarashi o‘zgarmas ekan, hech bir islohot kutilgan samara bermaydi.

Ekologik madaniyat
qadriyatga aylanishi shart

Ko‘cha-ko‘yda yurganda ustimizdagi kiyimga dog‘ tushmasligi, chang qo‘nmasligi uchun jon koyitimiz. Hech qachon uydagi butun ashyoni sindirmaymiz. Sababi, ota-

“

Sohada o‘zgarish va yangilanishlar, tub islohotlar qilinishi mo‘ljallanmoqda. Talabalar va o‘quvchilar o‘rtasida “Yangi daraxt — yangi nafas” ekochempionati, har oyda bir marotaba “Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlari tashkil etiladi. Albatta, tizimli bu tadbirlar yurtdoshlarimizda daraxt ekish, ko‘cha-ko‘ydgagi chiqindilarni tozalash bo‘yicha odat shakllanishiga xizmat qiladi.

tabiatga zarar yetkazishga oid jarimalar ortib boryapti. Jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrda “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga qo‘yilgan moratoriy muddatsiz davrga uzaytirildi. 2024-yil 29-fevralda qabul qilingan qonunga ko‘ra, daraxtlar, butalar, boshqa o‘simlik va nihollarni qonunga xilof ravishda kesish, kundakov qilish, shikastlantirish, yo‘q qilish yoki boshqa joyga noqonuniy ko‘chirib o‘tqazganlik uchun jarima miqdori 5 barobar oshirildi. Bu choralar natija beryapti, albatta, ammo vaziyat butkul ijobiy tarafga o‘zgardi deb bo‘lmaydi. Jumladan, 2023-yilda 4190 ta huquqbuzarlik aniqlangan bo‘lsa, 2024-yilda 2891 ta shunday holat kuzatildi. Shuningdek, 2025-yilning dastlabki 4 oyida daraxt kesish bilan bog‘liq 978 ta holat aniqlanib, qonuniy tartibda javobgarlik belgilangan. Yil boshidan buyon 4000 ga yaqin noqonuniy chiqindi tashlash holati aniqlandi.

Bu aniqlanganlari, xolos. Aslida, holat bundan ham yomonroq bo‘lishi mumkin. Yuqorida ekologiya muammosi hammani birdek tashvishga solayotganini ta’kidladik. Unda tabiatga bunday e‘tiborsizlik va ayovsiz munosabatda bo‘layotganlar kimlar,degan haqli savol tug‘iladi. Bunday insonlar bor

onamiz bolaligimizdan bunday qilish yomon ekanini uqtiradi. Shuningdek, kattalar ko‘p gapirmaslik, qo‘pol muomala qilmaslikni ta’kidlaydi. Bularning bari kishida yurish-turish, muloqot madaniyatini shakllantiradi. Ammo ko‘p hollarda “har joyga chiqindi uloqtirma”, “daraxt va butalarni sindirma”, deb farzandlarimizni tergayvermaymiz. Qaytanga ba‘zan mashinadan suv idishini tashlab, “Bor, qo‘lingdagi paketni daraxt tagiga qo‘y”, deb noto‘g‘ri o‘rnak ko‘rsatamiz. O‘g‘il-qizlarimizga ko‘chada yurish, muloqot qilish, o‘qishda, ishdagi, jamoat joylarida o‘zini tutishni o‘rgatamiz-u, tabiatni ardoqlash, atrof-muhitni ozoda tutish qoidalarini uqitirishni unutamiz. Aslida, ekologik madaniyat ham insonlarning, mahallalar, shaharlar, davlatlarning chiroyiga chiroq ko‘shadigan, xalqni, millatni boshqalardan ajratib turadigan ergu fazilatlaridan.

Masalan, yapon xalqi bu borada ko‘p marotaba butun jahonga o‘rnak ko‘rsatadi. Birgina futbol bo‘yicha jahon chempionatlarida yaponiyalik muxlislarning stadionni butunlay tozalab, chiqindilarni yig‘ib, o‘zi bilan olib ketishi dunyo aholini hayratda qoldirdi. Ularning bu ishidan barcha xalq o‘rnak olsa arziydi.

O‘zbek xalqining ham azaliy urf-odat, qadriyatlarida ekologik madaniyat aks etadi. Masalan, suvni ekish qilmaslik, farzand ko‘rganda daraxt ekish an‘anasi, orta bahorda hashar qilish odati qadimdan tabiat bilan hamnafas ekanimizni bildiradi. Yo bo‘lmasa “birni kessang, o‘nni ek”, “yaxshidan bog‘, yomondan dog‘ qoladi” kabi naqlar ota-bobolarimizning har qonuniyatiga aylangan. Ammo keyingi yillarda bu qadriyatlardan ancha uzoqlashib ketgandekmiz. Ularni tiklash bugunning zaruratiga aylandi.

Xullas, “Yashil makon”, “Mening bog‘im” kabi yirik loyihalardan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun, avvalo, yurtdoshlarimizning ekologik madaniyatini kuchaytirish talab etiladi.

O‘tgan yillarda bu yo‘nalishda qator zaruriy chora-tadbirlar ko‘rildi. Xususan, mintaqada yagona bo‘lgan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti ochilishi bu yo‘nalishni ilmiy tadqiq qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, ekofaollik bo‘yicha turli aksiyalar, marafon, sport tadbirlari hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. Ayni shu yo‘nalishda turli kontentlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilishi yaxshi natija berayotganini qayd etish joiz.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRI: KELAJAKKA HUQUQIY NAZAR

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatimizni mintaqaviy IT xabga aylantirish uchun qator vazifalar belgilangan. Axborot texnologiyalari xizmatlari va dasturiy mahsulotlar eksporti qiymatini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi shular jumlasidan.

Buning uchun hududlarda IT infratuzilma hamda venchur bozorini rivojlantirish, “local to global” tamoyili orqali mahalliy korxonalarni eksportga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalar ofisini ochish kabi ko‘plab chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Bugun yuksak texnologik taraqqiyot jarayonida inson manfaatlari va adolat tamoyillariga amal qilish, samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish, raqamli suverenitetni ta’minlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikni har tomonlama kuchaytirishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

Texnologiyalar va virtual munosabatlar shiddat bilan hayotimizga kirib kelayotgan bugungi kunda sun‘iy intellekt kabi taraqqiyotning eng ilg‘or yutuqlaridan umumbashariyat manfaatlari yo‘lida oqilona va samarali foydalanish eng maqbul yechimdir.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar yordamida davlat boshqaruvi modernizatsiyasi va davlat xizmatlarini elektronlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hisobiga “xizmat ko‘rsatuvchi davlat” tamoyilini ro‘yobga chiqarishga katta e’tibor berilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi hamda onlayn rejimda ishlovchi platformalar va integratsiyalashgan bilimlar bazalari ishga tushirildi. Strategiyada sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo‘yicha erishish lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar belgilab berildi.

Kuni kecha poytaxtimizda raqamli davrda huquq tizimi islohotiga bag‘ishlangan nufuzli “Tashkent Law Spring” IV xalqaro yuridik

forumi ish boshladi. 2019-yildan buyon har ikki yilda tashkil etiladigan mazkur forum huquq sohasidagi eng yirik xalqaro muloqot maydonlaridan biriga aylangan.

Bu yilgi tadbirning asosiy mavzusi “Raqamli texnologiyalar davri: kelajakka huquqiy nazar” bo‘lib, jahon yuridik jammiyatini raqamlashtirish jarayonidagi yangi tahdid va imkoniyatlarni muhokama qilishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbarining “Tashkent Law Spring” to‘rtinchi xalqaro yuridik forumi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidagi “Shaxsiy daxlsizlik huquqi va taraqqiyot ehtiyojlari o‘rtasida nozik muvozanatni topish, intellektual mulk himoyasi, sohada qulay investitsiyaviy muhitni ta’minlash, shuningdek, yangi voqe’lik — “raqamli dunyo” sharoitida davlatlarning huquqiy transformatsiya jarayonlariga muvaffaqiyatli o‘tishi, ayniqsa, sun‘iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirish va undan foydalanish etikasi bo‘yicha namunaviy qoidalar ishlab chiqish ustuvor ahamiyatga egadir. Ushbu innovatsion huquqiy asos mazkur sohani samarali tartibga solishda barcha davlatlar uchun o‘ziga xos namuna bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Forumda ana shu muhim jihatlarni alohida hisobga olib, eng dolzarb masalalar muhokama qilinishi hamda amaliy taklif hamda tashabbuslar ishlab chiqilishi raqamli kelajakning mustahkam poydevorini yaratish va raqamli transformatsiya yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ladi”, degan so‘zlari mazkur foruming bugun naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Forumda 1000 dan ortiq, jumladan, 150 ga yaqin xorijlik spiker va rasmiylar, 40 dan



ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar vakillari, xususan, Saudiya Arabistoni, BAA, Pokiston, Rossiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston kabi mamlakatlarning adliya organlari rahbarlari, Singapur bosh prokurori, shuningdek, “Jahon odil sudlov loyihasi” ijrochi direktori ishtirok etmoqda.

Yirik xalqaro anjuman doirasida 20 ga yaqin tadbir, jumladan, plenar sessiya, mahorat darslari, davra suhbatlari, 4 ta ko‘rgazma, shuningdek, ilk bor Xalqaro yoshlar yuridik forumi ham o‘tkazildi.

Tadbirlarda sun‘iy intellekt, IoT, Big Data, blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalarning huquqiy tizimga ta’siri, elektron hukumat, raqamli notariat, yuridik ta’limdagi inqilobiy yangiliklar, intellektual mulkni himoya qilish, yuridik amaliyotni raqamlashtirish kabi mavzular muhokama qilindi.

— Eng muhimi, tadbirda huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, smart shartnomalarni joriy etish, kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda raqamli mediatsiya va sud ekspertizasi borasidagi ilg‘or tajribalar o‘rganiladi, — deydi adliya vaziri Akbar Toshqulov. — Huquqshunoslar, olimlar, IT mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlik sun‘iy intellektni qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotiga integratsiya qilish masalalari atrofida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot o‘rnatilishi uchun imkon yaratadi.

Anjuman doirasida ilk bor Xalqaro yoshlar yuridik forumi o‘tkazilayotgani ham diqqatga sazovor. Chunki bu sohalar rivojini yosh avlodning faol ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, navqiron huquqshunoslarning innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni qonun ijodkorligi

Islohotlar samarasi

BUNYODKORLIK
KO‘LAMI ORTISHI

ISHLAB CHIQUARUVCHILAR
ZIMMASIGA KATTA MAS’ULIYAT
YUKLAYDI

Ilyos RAHIMOV,
“O‘z sanoatqurilishmateriallari” uyushmasi boshqaruvi raisi
vazifasini bajaruvchi

Mamlakatimiz bo‘ylab kechayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik jarayoni qurilish materiallariga talabni keskin oshirmoqda. Bu tabiiy, shu bilan birga, mas’uliyatli holat. Nega? Chunki talabga mos mahsulot yetkazib berishning o‘zi bo‘lmaydi. Buning uchun, avvalo, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, yangi texnologiyalar zarur.

So‘nggi yillarda ayni shu jihatlariga qaratilayotgan e’tibor tufayli nafaqat yirik shaharlarda, balki olis hududlarda ham yangi, istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ishga zamonaviy va innovatsion yondashuv tarmoq rivojiga katta turtki beryapti. Buni Prezidentimiz qurilish materiallari mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlarida ularidan kengroq foydalanish vazifalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Joriy yilning birinchi choragida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tarmoq korxonalari tomonidan jami 12,1 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Iqtisodiy o‘sishga, asosan, o‘tgan yili yangi korxonalar ishga tushirilishi va mavjud quvvatlardan samarali foydalanish hisobiga erishilmoqda.

Umuman olganda, bu yil 50 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, eksport hajmi 1,2 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Mahalliyatlashtirish dasturi doirasida 4,4 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqariladi. Import o‘mini bosuvchi glazurlangan keramogranit, bazaltidan mineral tola, gazobeton bloklar, gulqog‘oz, bezakli qurilish oynasi kabi materiallarni ishlab chiqarish o‘zlashtirildi.

Uy-joy, bino hamda inshootlar qurilishi iqtisodiyotni rivojlantirib, hududlar infratuzilmasini yaxshilash barobarida odamlarga qulay yashash sharoiti va yuqori kayfiyat beradi. Shu ma’noda, qurilish sanoati rivojlanib borayotgani quvonarli.

Hozirgi kunda tarmoqda 10 mingga yaqin korxona faoliyat yuritib, mahsulotlari bilan xorij bozorlariga ham chuqur kirib boryapti. 2025-2026-yillarda hududlarda qiymati 3,6 milliard dollarlik 346 ta loyiha amalga oshirilishi ortidan 19,4 ming yangi ish o‘rni yaratilishini inobatga olsak, bu boradagi natijalar yanada yuksalib boraveradi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

YASHIL HUDUDLAR UCH KARRA KO‘PAYADI

TOSHKENT SHAHRI VA UNING ATROFIDA BUNDAY
HUDUDLAR 25 MING GEKTARGA YETKAZILADI

Shinam va qulay turar joyga ega bo‘lish har bir inson uchun katta baxt. Aksincha, nomi uy, lekin undagi sharoitlar yashash mezonlariga javob bermasa, uyngda dam olish o‘rniga oxiri yo‘q muammolardan charchasang, bunday uйда yashovchilarning ruhiy holati qanday bo‘lishini tasavvur qilish qiyin emas.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Esirib ketgan ikki-uch qavatli uylar, xalq tilida aytganda, “barak” binolar bir paytlar muammoni vaqtincha hal etish maqsadida qurilgan bo‘lsa-da, amalda ular uzoq yillardan buyon xizmatimizada edi. Bu yillarda o‘nlab yillar davomida odamlar og‘ri sharoitda yashashga majbur bo‘lgani hayotiy haqiqatdir. Devordagi yoriqlar, qadam bosganda qisirlab turadigan yog‘och pollar, chakka oqadigan tomlar, hovlida joylashgan sanitar xonalarda issiq suv va markaziy isitish tizimi yo‘qligi, qolaversa, zilzilabardoshlik me’yorida emasligi qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Bular shunchaki eskirgan inshootlar emas, balki davlatning e’tiborini to‘liq safarbar etishga chaqiruv ishorasi edi. Maqsad — insonlar uchun munosib, qulay va farovon sharoit yaratish. Zero, yangi O‘zbekistondagi barcha islohotlar zamirida inson sha’ni, qadr-qimmatini ta’minlash, har bir fuqaro uchun qulay sharoit yaratish maqsadi mujassam.

Shu bois, mamlakatimizda bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilib, ko‘plab ijtimoiy loyiha va dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Shaharlar va aholi punktlarining tez sur’atlarda o’sishi, avvalgi turar joy foni eskirishi tufayli renovatsiyani amalga oshirish davlatning shaharsozlik siyosatidagi eng muhim vazifalaridan biridir. Bu faqat eski binolarni yangi qurilganlariga almashtirish emas, balki butun shahar muhiti, infratuzilmani, jamoat joylari va muhandislik tarmoqlarini keng qamrovli modernizatsiya qilishga qaratilgan insonparvar siyosatdir.

Vaqt va ilg‘or xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, samarali renovatsiya aholi uchun hayot sifatini oshirish, qulay, xavfsiz va barqaror turmush muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishdagi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zero, aholini zamonaviy talablarga javob beradigan turar joylar bilan ta’minlash juda muhim va dolzarb masalalar sirasidan. So‘nggi sakkiz yilda mamlakatimiz aholisi soni olti millionga ko‘paydi. Bu davr mobaynida qariyb yarim million turar joy binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. Jumladan, birgina o‘tgan yilning o‘zida 100 mingga xonadondan iborat ko‘p qavatli uy barpo etildi. Joriy yilda esa bu ko‘rsatkich yanada oshirilib, 130 mingdan ortiq ko‘p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan.

Yaqin yillar ichida mamlakatimiz aholisi soni 40 millionga yetadi. Shunday o‘ssish sur’atlari davom etsa, mutaxassislar har yili 140-150 mingga yangi xonadonga ehtiyoj tug‘ilishi mumkinligini ta’kidlamogda.

Bu muammoni samarali hal etishga renovatsiya dasturi yordam beradi. Chunki mamlakatimizda ayni paytda 17 mingga yaqin eski, ikki va uch qavatli turar joy binosi mavjud. Agar bu joylarda zamonaviy 7-9 qavatli binolar qurilsa, yaxshi sharoitda uch barobar ko‘p aholi istiqomat qilishi mumkin.

Eng muhimi, renovatsiyaga qamrab olingan hududlarning iqtisodiy salohiyati ham ortadi. Yangi binolarning birinchi qavatlarida savdo shoxobchalari, xizmat ko‘rsatish obyektlari va kichik ishlab chiqarish sexlari joylashtiriladi. Natijada minglab oilalarning hayot sifati yaxshilanadi.

Ayni maqsadda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida joriy yilda 135 ming xonadonli ko‘p qavatli uy-joylar qurish va “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 55 taga yetkazish, uy-joy

qurilishi va ipoteka dasturini ishlab chiqishda “Yangi O‘zbekiston” va boshqa massivlarni shaharlar hamda ularga tutash hududlarda joylashtirish belgilangan.

Joriy yil 9-aprel kuni Prezidentimiz shaharsozlik renovatsiyasining huquqiy asoslarini belgilash bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish chog‘ida, birinchi navbatda, aholi manfaatlarini himoya qilib, mavzuga adolat bilan yondashish masalasini alohida ta’kidlagan edi.

14-may kuni Toshkent shahrida rejalashtirilgan renovatsiya va investitsiya loyihalarini taqdimotida davlatimiz rahbariga bu boradagi rejalar haqida axborot berildi. Qayd etilganidek, bosh rejada 300 dan ortiq renovatsiya manzilli belgilangan. 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan birinchi bosqichda 65 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu orqali mazkur hududlar funksional jihatdan boyitiladi, aholi uchun sharoit yaxshilanadi, atrof obodonlashtiriladi. Natijada eski va zamonaviy mavzelar orasidagi tafovut bosqichma-bosqich qisqartirib boriladi hamda ular o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Binolar kam maydonda qurilib, mavjud daraxtlar saqlab qolinadi, yangi yashil hududlar barpo etiladi.

— Prezidentimiz “ToshkentboshplanLITI”ga tashrif buyurib, bosh rejada belgilangan vazifalar ijrosi bilan tanishdi, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi boshqarma boshlig‘i Azizxon Usmonov. — Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrda qarori bilan Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan bosh rejasi tasdiqlangan. Unga ko‘ra, poytaxtimiz hududi 3

yuridik xizmatlar sifatini xalqaro darajaga olib chiqishga imkon beradi.

Shu bilan birga, forum doirasida huquqni raqamlashtirish bilan bog‘liq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlanadi. Jumladan, elektron imzolarning transchegaraviy tan olinishi, raqamli notariat institutlarini qonuniy asosda rivojlantirish, intellektual mulkni blokcheyn texnologiyalari asosida ro‘yxatdan o‘tkazish va himoya qilish tartibini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar muhokama qilinadi. Shuningdek, cun‘iy intellekt ishlab chiqqan kontent muallifligi masalasi forumda muhokama etiladigan dolzarb mavzulardan.

Huquqiy ta’lim sohasi ham forumda alohida e’tibor markazida bo‘ladi. O‘quv dasturlariga LegalTech va kiberxavfsizlik kabi yangi o‘quv dasturlarini joriy etish, yuridik bilim berishda simulyatsion modellarni va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng muhokama qilinadi. Bu O‘zbekistonning huquqiy kadrlar tayyorlash tizimini dunyo standartlariga moslashtirishda muhim qadam bo‘ladi.

Tadbirning yana bir muhim jihati shundaki, u orqali O‘zbekiston jahon yuridik jammiyatida o‘zining ochiq, hamkorlikka tayyor va huquqiy jihatdan rivojlanayotgan davlat sifatidagi imjini mustahkamlab bormoqda. Hamkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot jarayonida nafaqat normativ masalalar, balki global muammolar, ma’lumotlar xavfsizligi, inson huquqlari, ekologik adolat va raqamli inklyuzivlik borasidagi yondashuvlar ham muhokama qilinadi.

Dunyoda jadal kechayotgan raqamli transformatsiya jarayoniga moslashishda huquq tizimi markaziy o‘rin tutadi. Shunday ekan, “Tashkent Law Spring” IV xalqaro yuridik forumi dolzarb masalalarga huquqiy yondashuvni shakllantirish bilan birga qonun ijodkorligi, amaliyot va fan o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatadigan innovatsion maydon sifatida o‘z ahamiyatini yanada oshirib bormoqda.

Forum yakunlari bo‘yicha huquqiy transformatsiya bo‘yicha strategik tavsiyalar, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va yangi qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Tadbir doirasida qabul qilinishi kutilayotgan tavsiya va qo‘shma bayonotlar, xalqaro memorandum va kelishuvlar mamlakatimizning huquqiy modernizatsiya jarayonini yanada tezlashtiradi. Huquqshunoslar, davlat xizmatchilari va siyosatchilar uchun innovatsiya, tajriba va hamkorlik platformasi vazifasini o‘taydi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ta — konservatsiya, rekonstruksiya va renovatsiya zonalariga ajratilgan. Jumladan, renovatsiya zonasiga eski, kam qavatli uylar, shaharsozlik va zilzilabardoshlik talablariga javob bermaydigan binolar kiritilgan. Ular bosqichma-bosqich bartaraf etilib, bo‘shatilgan hudud zamonaviy loyihalar asosida qaytadan qurilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarning shahar arxitekturasini va infratuzilmasiga mosligini chuqur o‘rganish, geologik va seysmik tahillarni asosida xavfsizlik jihatidan takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Turar joylar maktab, bog‘cha kabi ijtimoiy muassasalar, dam olish sharoitlari bilan hamohang bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

Joriy yilgi davlat dasturida 2025-yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarning 15 foizida, 2027-yildan boshlab 30 foizida, 2030-yildan boshlab 55 foizida “yashil komponentlar” bo‘lishi lozimligi belgilangan.

Shaharning “o‘pkasi” daraxtzorlari bo‘lsa, ariq va kanallar ularning “qon tomiri”. Prezidentimiz ko‘rsatmasi bilan yangi bosh rejada bu masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Toshkent shahri va uning atrofida yashil hududlarni 3 karra ko‘paytirib, 25 ming gektarga yetkazish maqsad qilingan. Bu, o‘z navbatida, suv yo‘llarini yaxshilashni talab etadi.


Taqdimotda shahar irrigatsiya va drenaj tarmoqlarining yangi bosh reja bilan uyg‘unlashtirilgan tizimi ham ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, 2030-yilgacha 100 kilometr kanal rekonstruksiya qilinib, atrofida sayilgozlar tashkil etiladi. Turkiya kompaniyasi bilan birga drenaj tarmoqlaridagi muammoni o‘rganilgan. Aerofoto, geodeziya va yog‘ingarchilik tahlili asosida bu tarmoqlarni yangilash bo‘yicha master-reja ishlab chiqilgan. O‘tgan yili 45 ta suv toshqini hududi bartaraf etilgan. Bu yil yana 34 ta joyda shunday ishlar bajariladi.

— Davlatimiz rahbariga Toshkent shahrida investitsiya loyihalarining holati haqida axborot berildi, — deydi Toshkent shahri hokimi o‘rinbosari Sharof Rahmonov. — Poytaxtimizda umumiy qiymati 25 milliard dollarlik 717 ta investitsiya loyihasi shakllantirilgan. Joriy yilda shundan 7 milliard 500 million dollari o‘zlashtirilib, 265 ta loyiha ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan. Natijada turar joylar, savdo va ko‘ngilochar majmualar qurilib, sanoat korxonalari tashkil etiladi va minglab yangi ish o‘rinlari ochiladi.

Har bir loyihaning “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Jumladan, joriy yilning o‘tgan davrida bir milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Eng asosiysi, mazkur loyihalar amalga oshirilishi natijasida yil yakunida 60 mingga yoki ish o‘rni yaratiladi.

L. Xayrullayev,
jurnalist

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni



Bunga ancha yil bo‘ldi. Odamlar orasida turli mishmish oralab qoldi. Aytishlaricha, Jiynov qishlog‘i markazida hashamatli bolalar musiqa va san‘at maktabi qurilarmish. Birov ishondi, birov ishonmadi. Ko‘p o‘tmay, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Shundagina qishloq odamlari mishmish haqiqat ekanini angladi. Lekin “Bunday musiqa va san‘at maktabi qishloq uchun nega kerak ekan?” deya bosh qotirganlar ham bo‘ldi. Ancha mablag‘ sarflanib, bunyod etilayotgan maktab bo‘sh qolib ketishidan xavotirga tushganlar ham uchradi. San‘atdan bir oz xabari bor keksalar bundan faqat mamnun bo‘ldi. Bunyodkorlikni olqishladi. Ular Tojiddin Murodovdek hofizlar yetishib chiqqan bu manzildan uning izdoshlari chiqishiga shubha qilmasdi.

ERTAMIZ EGALARINING BUGUNGI ODIMLARI

Ikki qavatli qilib barpo etilgan shinamgina san‘at maktabi binosi qishloq ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi. Endi Mirishkor tumanining olis Jiynov qishlog‘i yoshlari ham san‘at sirlaridan boxabar bo‘lishiga imkoniyat yaratilgandi. Buni mutaxassislar ham e‘tirof etdi. Ammo yangi ish boshlagan maktabdagi san‘at yo‘nalishi to‘garaklariga hudud bolalari negadir qiziqish bildirmasdi. Shunday paytda avval bashoratchilik qilgan ayrimlar tilga kirdi. “Boshida aytgandim. Bekorga davlatning katta puli sarflanib, maktab qurildi. Endi bo‘sh yotadi. Aslida, kerak emas edi”, deya o‘z so‘zini ma‘qullatishga tushdi. Bunga ba‘zilar ishongandek ham bo‘ldi.



Oradan besh-olti kun o‘tmay, yangi maskanga bolalar kela boshladi. Avvaliga uch-to‘rt o‘g‘il-qiz kelgan bo‘lsa, oradan bir oz vaqt o‘tib, ular safi kengayib bordi. Endi har kim o‘z qiziqishiga qarab cholg‘u asboblari chalishni o‘rganadigan bo‘ldi. Shogirdlari ko‘payayotganidan mamnun ustozlar bor mehrini berib mashg‘ulotlarni boshlab yubordi. Islombek Muhammadiyev ham shu qish-

loqda tug‘ilgan. U endi gapirishni o‘rgangan paytlaridanoq qo‘shiq xirgoyi qilishni yoqtirardi. Bu iqtidorini vaqtda anglagan ota-onasi Islombekni ko‘proq qo‘llab-quvvatlaydigan bo‘ldi. U sakkiz yoshidan boshlab qishloqdagi bolalar musiqa va san‘at maktabiga qatnay boshladi. Tengdoshlari qatori to‘garakka a‘zo bo‘lib, san‘at sirlarini o‘rganishga kirishdi. Ajablanarli jihati, u boshqa tengdoshlaridan farqli ravishda maqom yo‘nalishi bo‘yicha bilimini oshirishga ahd qildi. Ustozlari ko‘magida uddasidan chiqishga intildi. Vaqt o‘tishi bilan bolaning tajribasi ortib bordi. Keyinchalik tuman, viloyat miqyosida o‘tkazilgan tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi.

Bir kuni televizorda yosh maqomchilar qatori mirishkorlik Islombek Muhammadiyev ham chiqib, chiroyli ovozi bilan barchaning havasini keltirib kuyladi. Uni ko‘rgan ko‘pchilik qishloqdoshlari faxrlandi. Ayniqsa, bir paytlar musiqa va san‘at maktabi behuda qurilgani haqida taxmin qilganlar hayratdan yoqa ushlab qoldi. Oddiygina qishloq bolasi turli tanlovlarda ishtirok etib, oynai jahonda kuylab turgani kishi havasini keltirmay iloji yo‘q.

Ayni paytda 14 yoshga qadam qo‘ygan Islombek qishlog‘idagi imkoniyatlardan unumli foydalanib, o‘zi aytganidek, yuqori natijalarni

qo‘lga kiritib kelmoqda. Jumladan, o‘tgan yili Qoraqalpog‘istonda o‘tkazilgan “Bo‘zatov fest” Yoshlar ovozi tanlovida ishtirok etib, an‘anaviy ijrochilik yo‘nalishida 2-o‘rinni egalladi. Bundan tashqari, 2024/2025 o‘quv yilida Qashqadaryo viloyati hokimi stipendiyasi sovrindorlari qatoridan joy oldi. U hali yutuqlari oldinda ekani bois, hech qachon ilm olishdan, intilishdan to‘xtamasligini ta’kidlaydi. Bu esa



kelajak uchun sarflangan sarmoya allaqachon samara berayotganini anglatadi. Feruza Jo‘raqulova Qarshi shahridagi Bog‘ishamol mahallasida yashaydi. Ayni paytda 13 yoshda. Maktabdagi faol o‘quvchilardan. Bundan tashqari, qator bilimli bolalarga boshchilik qilib, turli tanlovlarda ishtirok etishni yaxshi ko‘radi. U axborot texnologiyalari bo‘yicha ta‘lim olib, grafik-dizaynerlik bilan shug‘ullanadi. Qo‘shimcha oyiga loyihalarni amalga oshirishi evaziga oyiga 10 million so‘mga yaqin daromad topadi.

— Axborot texnologiyalari qiziqishim baland. Shuning uchun sohada bilimimni

oshirib, hozir internet orqali xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotda ishlayapman, — deydi iqtidorli qiz. — Yaxshi maosh to‘lanadi. Eng muhimi, ishim bilim olishimga, qo‘shimcha darslarda ishtirok etishimga umuman xalal bermaydi. Aksincha, sohadagi tajribamni yanada oshirib, o‘zim uchun kerakli adabiyotlar xarid qilishim mumkin. Bundan tashqari, grafik-dizaynerlik yo‘nalishidagi loyihalarim ham ishga tushirilgan. Bundan ham daromad topaman. Shu bilan oilamizga nafim tegayotganidan mamnunman.

Bo‘sh vaqt topdi deguncha kitob mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘ladigan yosh dizayner zakovatchi yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlovlarda jamoasi bilan birga viloyatda birinchilikni qo‘ldan boy bermay kelmoqda. U O‘zbekiston Bolalar tashkiloti Qashqadaryo viloyati bo‘limi huzurida tashkil etilgan “Zakovat” yo‘nalishi sardori. Shu bilan birga, mamlakat miqyosida o‘tkazilgan bilimlar bellashuvida ham ilg‘orlar safidan joy olgan. U kelgusida bilimini yanada oshirib, Zulfiya nomidagi davlat mukofotini qo‘lga kiritishni maqsad qilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalari yo‘nalishida yetakchi tadbirkorlar qatoridan o‘rin olish orzusida.

Sevinch Ikromova 7 yoshidan sport bilan shug‘ullanib keladi. U egniga sport kiyimini kiyganida ulkan maqsadlarni ko‘zlagan. Karate mashg‘ulotlarida ishtirok etib, ustozlari mehrini qozonishga harakat qildi. Tajribasi ortib borgan sari musobaqalarda ham yaxshi ko‘rsatkichlarga erishdi. Dastlab viloyat musobaqasida shohsupaga ko‘tarilganida g‘oliblik nashidasini his etdi. Shundan so‘ng mamlakat birinchiliklarida peshqadam bo‘lishga harakat qildi. Natijada ikki marta O‘zbekiston chempionligini qo‘lga kiritdi. Shundan so‘ng ustozlari uni Osiyo chempionatida omadini sinab ko‘rishga taklif etdi. Nufuzli musobaqada

kuch sinashishning o‘zi bo‘lmaydi. Bir oz haya-jon bilan tatamiga chiqqan Sevinch dastlabki raqibini mag‘lubiyatga uchratganidan so‘nggina qo‘rquvni yengishga erishdi. Shundan keyin dadil yurishlari bilan finalga qadar yetib bordi. Yakuniy bahsda xorijlik raqibini mag‘lubiyatga uchratib, Osiyo chempioni bo‘ldi.

— Yaqindan boshlab taekvondo bilan shug‘ullana boshladim, — deydi Sevinch. — Bu sport turi olimpiya o‘yinlari dasturiga



kiritilgan. Demak, kelgusida olimpiada bahslarida yurtimiz sharafini himoya qilishga imkonim bo‘ladi. Hozirdan tayyorgarlik ko‘rib borsam, albatta, jahon maydonida yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘taraman. Buning uchun menda barcha imkoniyat mavjud. Faqat jiddiy hozirlik ko‘rib borsam bo‘lgani.

Sevinch Ikromova sport mashg‘ulotlaridan tashqari O‘zbekiston Bolalar tashkiloti Qashqadaryo viloyati bo‘limi huzuridagi “Vatan tayanchi” yo‘nalishi sardorligini ham bajarib keladi. Turk, rus, ingliz va fransuz tillarini yaxshi biladi. U har bir ishga o‘z vaqtida kiritilgan. Demak, kelgusida olimpiada bahslarida yurtimiz sharafini himoya qilishga imkonim bo‘ladi. Hozirdan tayyorgarlik ko‘rib borsam, albatta, jahon maydonida yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘taraman. Buning uchun menda barcha imkoniyat mavjud. Faqat jiddiy hozirlik ko‘rib borsam bo‘lgani.

Sevinch Ikromova sport mashg‘ulotlaridan tashqari O‘zbekiston Bolalar tashkiloti Qashqadaryo viloyati bo‘limi huzuridagi “Vatan tayanchi” yo‘nalishi sardorligini ham bajarib keladi. Turk, rus, ingliz va fransuz tillarini yaxshi biladi. U har bir ishga o‘z vaqtida

ulgurish uchun imkon topa olish eng birinchi qoidasi ekanini doim ta’kidlab, tengdoshlarini ham til o‘rganishga chorlaydi.

— Viloyatimizdagi 1246 ta maktabda bolalar harakati faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun “sardorlar saylovi” o‘tkazildi. Shu orqali 43 ming 578 sardor saylanib, ularning guruhi shakllantirildi, — deydi O‘zbekiston Bolalar tashkiloti Qashqadaryo viloyati bo‘limi rahbari Dilfuza Eshmurodova. — Jumladan, yoshlarning 19 ming 666 nafari “sinf sardori”, 23 ming 674 nafari “maktab sardori”, 224 nafari “mahalliy sardor”, 14 nafari “hududiy sardor” sifatida saylandi.

“ Bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilish, kelajakda ijtimoiy faol bo‘lib yetishishi uchun har bir sinfda “sinf sardori” faoliyatini yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan yili viloyatdagi 1246 ta maktabda bolalar harakati sinf sardorlari faoliyat boshladi. Hozir sinflardagi bolalar harakati sardorlari o‘z tengdoshlariga namuna bo‘lib, o‘zlashtirishi past sinfdoshlariga bilimini mustahkamlashga ko‘maklashmoqda. Shu maqsadda “Birlashaylik, tengdoshlar” loyihasi ostida namunali faoliyat yuritmoqda.

Loyiha doirasida sardorlar juft kunlari tengdoshlari o‘rtasida kelib chiqayotgan kelishmovchiliklarni hal etish, darslarni puxta o‘zlashtirish, tabiatni asrash, yoshi ulug‘larga va milliy qadriyatlarimizga hurmatni kuchaytirish va boshqa bir qancha muammolarni muhkama qilish orqali tengdosh — tengdoshga tamoyili asosida davra subhatalari tashkil etib kelmoqda.

Maktab sardorlari sardorlikning ilk kunidan boshlab “Biz — yosh ekologlar”, “Ilm-ma’rifat elchilari”, “Bolalar karvoni”, “Biz sportni tanlaymiz” kabi loyihalarni o‘z maktabida amalga oshirishni boshlab yubordi. Umumiy hisobda mazkur loyihalarda ko‘p sonli bolalar qamrab olindi.

Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” loyihasi orqali 400 mingga yaqin yosh “Ibrat Academy” mobil ilovasi orqali xorijiy tillarni o‘rganmoqda. Ularining 10 mingga yaqini bugunga qadar til bilish sertifikatini qo‘lga kiritgan.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



2005-yilning kech kuzi edi. Termizni tiramoh sovug‘i o‘z zabtiga olgan, nafaqat ob-havo, balki shahar tug‘uruqxonasi hovlisida tik oyoqda turgan ikki-uch chog‘li ayolning ham kayfiyati tund, tushkun edi. Sababi, ona farzandini dunyoga keltirdi-yu, vafot etdi. Qarindosh-urug‘ marhum bilan ovora bo‘lib qolib, go‘dakni unutishdi. Ayrimlarda esa endigina tug‘ilgan qizaloq onasiz yashab ketolmaydi degan hadik ham bor edi.

O‘sha paytlar hozirgidek zamonaviy sharoitga ega bo‘lmagan shifoxonada sovugda diydirab yurgan shifokorlar marhumning uzoq qarindoshi va yetim qolgan jajji qizaloq taqdiriga qiziqayotgan bolajon ayol, 9 farzandning onasi Oydin Yo‘ldosheva kelganini eshitib, uning mehrlari qo‘llariga topshirishdi-yu, chuqur tin olishdi.

Ona yetim qolgan bola begona qo‘llarda qolib xo‘rlanmasin deb issiq bag‘riga oldi.

Qizaloqqa Dilduza deb ism qo‘yishdi. Dilduza Safarova Termiz shahridagi 7-o‘rta ta‘lim maktabida tahsil oldi. U ulg‘aygani sari tutingan onasining dardu tashvishlari ortib bordi. Garchi maktabda o‘qituvchi bo‘lsa-da, maosh kam va ustoz-murabbiylarga e‘tibor haminqadar bo‘lgan. Chunki bir etak bolaning hammasini uyli-joyli qilish, hayotda o‘mini topishiga ko‘maklashish qiyinchilik tug‘diradigan bir mahallardir.

Keyin davlatda katta islohotlar boshlanib ketdi. Endi faqat mehrlari oilalargina emas, ularning bosh tayanchi bo‘lib davlat ham ko‘ngli o‘ksik bolalarga mehr-saxovat, bag‘rikenglik va insoniylik fazilatlarini ko‘rsata boshladi.

Maktab o‘quvchisi bo‘lgan Dilduza Safarovani yo‘qchila keladigan, e‘tibor

Yoshlarga oid davlat siyosati — amalda Mehrlar qo‘l



qaratadigan mas‘ul tashkilotlar va davlat xodimlari ko‘paydi. Ona Oydin Yo‘ldoshevaning ko‘ngli tinchlandi. Chunki endi yetim bolasi Dilduzani yo‘qlaydigan g‘amxo‘r va mehribon davlati bor. Shunday kunlarning birida Oydin opa chin dunyoga ketdi.

Dilduza Safarova chin yetimligi sabab imtiyoz va davlat granti asosida Termiz davlat universitetiga o‘qishga qabul qilindi. Ayni paytda oliygohning filologiya va tillarni o‘qitish fakultetining iqtidorli talabasi.

— Doimo davlatimizning yordami ko‘nglimni tog‘dek ko‘taradi. Tuqqan onamni esolmayman, tutingan onam ham vafot etganidan so‘ng asosiy suyanchim davlatim bo‘ldi. Oliy ta‘limga imtiyoz asosida qabul qilindim. Menga doimiy ijtimoiy ko‘maklar berib kelishmoqda. Zarur jihozlar, jumladan, noutbuk ham berishdi, — deydi Dilduza Safarova. — Voyaga yetganimdan so‘ng hayotimdagi eng quvonchli voqeani hadya etdi davlatim menga. Chin yetimligim inobatga olinib, Termiz shahridan bir xonali uy berildi. Bilasizmi, onam tirikligida bolalarcha mayda masalalarda ham yig‘laganimda “men bor ekanman, yig‘lama, men borman-ku”, derdi. Endi sira yig‘lamayman, sababi, onam singari

meni yig‘lamaslikka chorlaydigan davlatim bor.

Dilduza Safarova kelajakda o‘qituvchi bo‘lmoqchi. Davlatdan, mehrlari qo‘llardan suv ichib sug‘orilgan qalbida joy olgan ezguliklarni endi minglab bolajonlarga ulashmoqchi. Bugungi kunda Dilduza singari davlatning g‘amxo‘rligi ortidan hayotiga nur kirgan yoshlar, bolajonlar soni juda ko‘p.

Keyingi yillarda birinchi o‘rinda nogironligi bo‘lgan, chin yetim talabalar, kam ta‘minlangan oila farzandlari oliy ta‘lim olishiga imkoniyat yaratilmoqda. Misol uchun, nogironligi bo‘lgan talabalar uchun umumiy kvotadan ikki foiz o‘rin ajratilmoqda. OTMlarga kirishda ularga alohida tanlov amalga oshirilayapti. Chin yetimlar ham davlat hisobidan o‘qitilayapti. Dilduza singari mingga yaqin chin yetim o‘qishga qabul qilinib va ular to‘liq davlat hisobidan o‘qitilmoqda.

Yurtimizda keyingi yillarda bolalarga uyda yakka tartibda ta‘lim berishga doir normativ-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqilib, ular orqali uyda ta‘lim olishga ehtiyoji bor o‘quvchilar

“ Uyda yakka tartibda ta‘lim berishda o‘quvchilarning ta‘lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan maxsus talablarga muvofiq bilim olishini ta‘minlash, barkamol va ma‘nan sog‘lom shaxsni voyaga yetkazish, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning sog‘lig‘ini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

qo‘llab-quvvatlanmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi qarori yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlamma qo‘llab-quvvatlash, ularning

etadi. Ularga ta‘lim berish uchun 40 mingdan ortiq o‘qituvchi jalb etilgan.

Termizlik Farrux Amirqulov Surxon vohasi markazidagi 20-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida tahsil oladi. Salomatligida jiddiy muammosi borligi sababi u tengqurlari singari maktabga borolmaydi. Lekin o‘qishga qiziqadi, matematika fanini yaxshi ko‘radi. Jismoniy harakatlari cheklangan bo‘lsa-da, irodasi baquvvatligidan og‘ir atletika bilan shug‘ullanib keladi. Bo‘sh vaqtda kitob o‘qiydi, onasi bilan dars tayyorlaydi.

individuallashtirish, ularning qobiliyatlariga mos ravishda yaratilgan o‘qitish usullari va texnikasi kelajak egalarining mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, bolalarning o‘zini tutishini yaxshilash, ishonchini oshirish va ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlashga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Muslimbek Mullajonov esa hozir Termiz shahridagi 6-maktabning 8-sinfida o‘qiydi. Unda serebral falajlik kuzatilgani bois, dars mashg‘ulotlari uyda tashkil etilgan. Jarayonlar dars jadvali asosida o‘tkaziladi. Muslimbek tarix va adabiyot faniga juda qiziqadi. O‘ziga birkirilgan o‘qituvchilarining darsga kelishiga har ikki fandan qator savollarni ham tayyorlab qo‘yadi. She‘riyatga, adabiyotga qiziqishi

tufayli o‘zi yozgan ijod namunalarini mahalliy va markaziy gazeta-jurnallarda ham chop ettirib kelmoqda.

— Unda o‘ziga xos ijodkorlikni sezganman, shu bois, ko‘proq ijod qilishga chorlayapmiz. Yaqinda shogirdimning she‘r va hikoyalar to‘plamini chop ettirmoqchimiz. Uning yozganlarini o‘qib, avvallari tushkunligini anglagan bo‘lsam, bugungi kunda xushnudligini sezaman, — deydi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Gulchiroy Muhammedova. — Agar inson, o‘qituvchi, davlat bolalarning yuragini, hissiyotlariga va orzularini tushunsa, muammolari birgalikda yengsa, shunday bolalar ko‘pincha yangiliklar va kashfiyotlarga qo‘l uradi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun mehri, e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bilan Muslimbekdek bolalarning ko‘ngli o‘sadi, kelajigi esa yorug‘ bo‘ladi.

— Hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida ijtimoiy himoya hisobiga olingan bolalar soni 4480 nafarni tashkil etadi. Shundan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar 521 nafar. Vohada oilaviy bolalar uylari soni 24 ta. Ulardan 14 tasida 49 bola tarbiyalanayotgan bo‘lsa, 54 bola oilalarga tarbiyaga berilgan, — deydi Ijtimoiy himoya agentligi viloyat boshqarmasi mas‘ul xodimi Mirjalol Chorsanbiyev.

Jarqo‘rg‘on tumanidagi 66-maktabning 9-sinf o‘quvchisi, taqdirning sinovidagi toblanayotgan Feruza ham nogironligi bois, tengdoshlari kabi harakatlana olmaydi. Biroq o‘qib-o‘rganishda sinfdoshlaridan qolishmaydi. Ilgari yakka tartibda ta‘lim olgan qizaloq 2 oydan buyon “Inklyuziv ta‘lim” dasturi asosida maktabda tengdoshlari bilan bir safda tahsilni davom ettiraypti.

Feruzaning onasi bilan suhbatlashganimizda, qizining maktabga kelishi ular uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochgani, Feruza endi orzular qilib, unga yetishish uchun intilayotganini bildirdi.

Uyda yakka tartibda ta‘lim berishda o‘quvchilarning ta‘lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan maxsus talablarga muvofiq bilim olishini ta‘minlash, barkamol va ma‘nan sog‘lom shaxsni voyaga yetkazish, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning sog‘lig‘ini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

Yurtimizda imkoniyati cheklangan yoshlarning ta‘lim olishi, jamiyatda o‘z o‘imini topishi uchun zaruriy sharoitlar yaratib berilayotgani, yoshlar ulardan oqilona foydalanib, qator yutuqlarga erishib kelayotgani bugungi islohotlarning amaldagi natijasidir.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishi ma’naviy qashshoqlikka yo‘l ochadi. Ma’naviy qashshoqlik esa jaholat va manqurtlikni keltirib chiqaradi. Atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanida manqurt asirga olingan, ruhsiz qul bo‘lib, xo‘jayiniga so‘zsiz itoat qiluvchi, xotirasidan mahrum qilingan odam sifatida talqin etilgan. “Manqurt” so‘zi ko‘chma ma’noda o‘z tarixi, nasli, ajdodlarini unutgan insonga nisbatan ishlatiladi.

Romanda manqurtlik hodisasi haqida fikr yuritilar ekan, undagi rivoyatga ko‘ra, qadim zamonda jungjanglar degan bosqinchi xalq asir tushgan jangchilarni yo qul qilishar, yoki o‘zga o‘lkalarga sotib yuborisharkan. Ularga nisbatan behad og‘ir jazo chorasi asiming boshiga teriqalpoq tortish qiynog‘i bo‘lib, odatda bunday jazoga yosh asir yigitar mahkum etilarkan.

Dastlab bandi qilingan asiring sochlari taqir qilib qirilar, so‘ng yangi so‘yilgan tuyaning bo‘yin terisidan tayyorlangan qalpog‘cha uning boshiga qoplanar ekan. Albatta, bunday azobga giriftor bo‘lgan asir yo o‘lib ketar, yo bir umrga xotirasidan ajralib, o‘tmishini eslolmaydigan manqurtga aylanarkan. Shu tariqa insoniy qadr-qimmatini fahmlay olmaydigan bunday maxluqlar faqat xo‘jayinga qulluq qilish, u buyurgan topshiriqlarni so‘zsiz bajarishdan boshqa narsaga yaramas ekan.

O‘z xotirasidan ayrilgan manqurtida vatan tuyg‘usi yo‘qolib, hurlik nimaligini idrok etolmaslik holatiga tushib qoladi. Chingiz Aytmatov: “Manqurt xuddi it kabi faqat egasini taniydi. Boshqalar bilan ishi yo‘q”, deydi.

Bugun o‘z kelajagini o‘ylagan har bir davlat va jamiyat uchun, avvalo, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, eskirgan aqida va begona qarashlarni inkor etish bilan bir qatorda ilg‘or fikrlar, ulug‘vor ezzu maqsadlar va bunyodkor g‘oyalarni insonlar qalbi va ongiga singdirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Hozir dunyo jamoatchiligini yoshlarning virtual o‘yinlarga mukkasidan ketishi va unga tobe bo‘lib qolishi jiddiy tashvishga solyapti. Ayniqsa, yoshlar ongiga turli usullar bilan ta’sir etish, qalbiga yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni singdirish orqali ularni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishni maqsad qilgan ayrim g‘arazli kuchlar tobora ko‘payib borayotgani juda xavotirlidir. Mazkur holat oddiy kompyuter o‘yinlaridan tortib, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa dasturlari orqali ham amalga oshirilmoqda.

Olimlarning ta’kidlashicha, xayoliy olamda ko‘p vaqt o‘tkazuvchilar gipnozga beriluvchan bo‘ladi. Kompyuter o‘yinlarini muayyan maqsadlar asosida, kishini “zombilashirish”ga xizmat qiladigan etib dasturlash esa mutaxassislar uchun murakkab ish emas. Achinarli tomoni, bugun virtual olam yoshlar yoki o‘smirlarni fikriy qaram etish orqali o‘ziga bo‘ysundirib, internet kafeni ularning “ikkinchi uyi”ga aylantirib bo‘ladi.

O‘rganishlar ko‘rsatmoqdaki, onlayn o‘yin o‘ynovchilar asosan, o‘smirlardir. O‘smirlik



Mansur MUSAYEV,
siyosiy fanlar doktori

shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishida o‘ziga xos davr. Agar shu davrda o‘g‘il yoki qiz aggressiv ruhdagi onlayn o‘yinlarga berilsa, bu salbiy oqibatlariga olib kelishi muqarrar. Kompyuter ekranida turli tajovuzkorlik, zo‘ravonlik va fahshning ochiqdan ochiq ko‘rsatilishi bolalar ruhiyati, ma’naviyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamon shiddati inson hayotida ma’naviyatning naqadar muhim ekanini



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ko‘rsatmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni tubanlikka yetaklab, jamiyat taraqqiyotini izdan chiqaradi, parokandalikni yuzaga keltiradi. Ma’naviyat yo‘qolgan joyda insonda hayvoniy xislatlar ildiz otib, yovvoyilik, vahshiylik, jaholat va xurofot kuchayadi.

Biror xalqni o‘ziga tobe qilishni istaganlar, avvalo, uni o‘zligi, tarixi, ma’naviyati va madaniyatidan judo qilgan. Chunki ma’naviy jihatdan zabt etilgan xalqning madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish istilochilarning tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy usullaridan biridir.

Qadimgi Xitoy donishmandlaridan biri imperatoriga bunday maslahat bergan ekan: “Xoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi, madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy qashshoqlikka uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘ralashadi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi”.

Demak, madaniyat va ma’naviyati barbod bo‘lgan, milliy til, upf-odati izdan chiqqan mamlakatda ommanning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatida xalqda milliy g‘urur, iftixor, qadriyatlar asta-sekin zaiflasha boshlaydi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bugungi kunda yot va buzg‘unchi oqimlar bo‘ljajak a’zosiga to‘rt bosqichda ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi bosqichda qiziqitirish va xushomad qilib maqtashga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, hayot, o‘lim, kasallik haqidagi murakkab savollarga samimiy suhbat davomida oddiy va sodda javoblar berish, zamonning dolzarb muammolarini muhokama qilish, ekologiya,



korruptsiya, ozodlik kabi tushunchalarga e’tibor qaratish, xushomad qilish, “Sen kelishgan, aqlisan va buyuk vazifalarni bajarishga loyiqsan” degan gaplar bilan bo‘ljajak a’zo qalbi va ongi zabt etiladi.

Ikkinchi bosqichda tanqidiy fikrlash qobiliyati va shaxsiy fazilatlarni yo‘qqa chiqarish, charchoq holatiga keltirishga erishish, ko‘p soatlik ish, ma’ruzalar, uyuma-yurish yoki jamoat joylariga borish, yangi ta’limot bo‘yicha tinimsiz saboq berish orqali a’zoning nima qilayotgani yoki qanday yashayotgani haqida o‘ylashiga to‘sqinlik qiluvchi sharoitlar yaratiladi. U bir lahzha ham yolg‘iz qoldirilmaydi, o‘zi haqida barcha narsa aytib beriladi va tavba qilishga majbur qilinadi. Shuningdek, so‘zlashish lug‘atiga o‘zgartirish kiritish orqali undan ilmiy yoki diniy jihatdan jiddiy ko‘rinadigan, ammo ma’nosi faqat guruh ichida tushuniladigan nutqni o‘rganish talab etiladi.

Mazkur ayyorona usul yangi a’zoni tashqi dunyo bilan barcha aloqalardan mahrum qiladi va u uchun avvalgi aloqalar ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Natijada birinchi bosqichda berilgan va’daga qarama-qarshilik paydo bo‘ladi. Shu paytda nomzod uchun uchinchi bosqich amalga oshiriladi. Bunda guruhga bo‘lgan a’zolik hissini kuchaytirish va ijtimoiy hayotdan uzilishni rag‘batlantirish, o‘qishni yoki ishni tashlash istagini paydo qilish, xorijsa ketish, harbiy to‘qnashuvlarda qatnashish, oila, do‘stlar, jamoa bilan munosabatlarni uzish, tashqaridan kelgan har qanday ma’lumotni shubhali deb qabul qilish tushuntiriladi.

Mazkur bosqichda guruhni tanqid qilgan har qanday odam insoniyat taraqqiyotiga qarshi xavfli shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Ular bilan uchrashmaslik, ularga tuhmat uyushtirish yoki iloji bo‘lsa, sudga berish tavsiya etiladi. Ba’zida esa oila a’zolari ilgari duch kelgan yoki duch kelayotgan barcha qiyinchiliklar uchun ular javobgar deb e’lon qilinadi. Mavjud

turli dinlar mutlaqo “yovuz kuchlar”ga tegishli ekani, odamlarni baxt sari faqat o‘z rahnamosi boshchiligidagi guruhgina olib borishi mumkinligiga alohida urg‘u beriladi. Shu bilan birga, guruh a’zolari insoniyat gunohlarini yuvishdek “savob” ishda ishtirok eta olishlariga ishonch hosil qilishganda, ularga bu kabi buyuk ishlarni amalga oshirishda sizlarga jamoatchilik qarshi chiqadi, jamoatchilikning o‘ziga xos odatlari, o‘z manfaatlari bor, ular sizga ishonmaydi, sizni ta’qib qilishi ham mumkin deb tushuntiriladi. Shu bilan bo‘ljajak nomzod ongiga sen doimo haqsan degan “g‘oya” singdiriladi.

Xullas, o‘ta uddaburonlik bilan keltirilgan mazkur dalillar oqibatida guruh a’zosi tashqi qarshilikka qanchalik ko‘p duch kelsa, guruhga shunchalik chuqurroq kirib keta boshlaydi.

Shundan so‘ng to‘rtinchi bosqich amalga oshiriladi. Ya’ni nomzodda oldingi hayotga qaytishga imkon qolmaydi. Daromad manbai mavjud emasligi, moliyaviy qaramlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va biror kasbiy tajriba yo‘qligi qaytishni qiyinlashtiradi. Joyning tez-tez o‘zgarib turishi esa guruhdan tashqaridagi dunyo — oila, do‘stlar, qarindoshlar bilan barqaror aloqa o‘rnatishga to‘sqinlik qiladi.

Tashkilotda belgilangan qonun-qoidalariga ko‘ra, unga nikoh faqat guruh ichida mumkin ekani va shu nikohdan farzandlar borligi tufayli bir o‘zi keta olmasligi, ketishni istasa, bir vaqtning o‘zida barchasi ketishi kerakligi aytiladi. Natijada qo‘rquv, qat’iy intizom, tashqi dunyodan xavfsirash uni guruhda qolishga majbur etadi. Shu bilan birga, guruhdagi har qanday bosqichda baxt, erkinlik, shaxsiy boylik, bilim va’da qilinadi.

Tashkilotda bo‘ljajak nomzodni guruhga a’zo bo‘lishga qiziqitirish va xushomad qilish orqali maqtash, tanqidiy fikrlash qobiliyati va shaxsiy fazilatlarni yo‘qqa chiqarish, guruhga bo‘lgan a’zolik hissini kuchaytirish va ijtimoiy hayotdan uzilishni rag‘batlantirish kabi omillar

“Abdulla Avloniy “Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidir. Din va e’tiqodi salomat bo‘lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas, bunday kishilardan na o‘ziga va na boshqa kishilarga va na millatga tariqcha foyda yo‘qdur”, degan edi.

odamni zombiga aylantiradi. Guruh a’zosi o‘z rahbariga to‘liq bo‘ysuna boshlagan paytdan boshlab o‘ta xavfli shaxsga aylanadi.

Bugungi kunda “manqurt” tushunchasiga ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan “zombi” atamasi ham qo‘llaniladi. Zombi begona kimsaning kuchli uyqu dorisi, giyohvandlik moddolari, ong va fikrlashni xiralashtiruvchi yoki boshqa ta’sir etuvchi vositalar yordamida bironing xohish-irodasiga so‘zsiz bo‘ysunadigan, mustaqil fikrlay olmaydigan, o‘z fikriga ega bo‘lmagan kimsaga aylangan shaxs sifatida talqin etiladi.

Hozirgi kunda terrorchi va ekstremistlar tomonidan asosan, yoshlar, bolalar va ayollar terrorchilar tayyorlaydigan lagerlarda zombi bo‘lib tayyorlovdan o‘tmoqda. Ular yurti, kerak bo‘lsa, ota-onasiga qarshi qurol ko‘taryapti.

Zabt etilgan mamlakatlarni doimo itoatda ushlab turish uchun ularni manqurtlashtirish harakati azaldan mustamlakachi imperiyalarning asosiy quroli bo‘lib kelganini yuqorida qayd etildi.

Abdulla Avloniy “Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidir. Din va e’tiqodi salomat bo‘lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas, bunday kishilardan na o‘ziga va na boshqa kishilarga va na millatga tariqcha foyda yo‘qdur”, degan edi. Demak, qalbi va ongi zabt etilgan inson ozod fikrlashdan mahrum bo‘lishi, mutelikni, qullikni kurashsiz qabul qilishi, yurt taqdiriga befarq qarashini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim.

javoban siz ham hech bo‘lmasa jerkib biror so‘z aytasiz. Shu yerda agar siz to‘g‘ri “oltin qoida” izmida bo‘lsangiz, “Boshqalarning turkii berishini yoqtirmasang, o‘zing ham hech kimni turmta. Balki u beixtiyor qilgandir” deb bosiqlik qilasiz.

Yoki ayni zamanda urf bo‘lgan ijtimoiy tarmoqdagi bahslarni olaylik. Ba’zan boshlangan dahanaki jangda kimdir sizni haqorat qiladi. Bunday paytda “oltin qoida”ga ko‘ra, senga nisbatan yomon gaplar yoqmas ekan, o‘zing ham bironvga yomon gapirma, deb muomalani to‘xtatib qo‘yaziz.

O‘ylab ko‘rilsa, bularning bari bitta nuqtaga kelib birlashyapti. Yuqorida aytilgan oila, siyosat, do‘stlik, sevgi, mexanika, matematika, ziroatchilik, etika, iqtisodiyot, marketing kabilarning “oltin qoidasi” bir necha so‘zlar yig‘indisi vositasida ifodalanadi. Faqat ma’naviyatning “oltin qoida”si birgina so‘zda mujassam — odob (tarbiya). Demoqchi bo‘lganimiz, buni jamiki “oltin qoida”larning mazmuni aks etgan “oltin qoida” deyish mumkin. O‘sha bugun uzzukun tepamda nuqtab turadigan menga hamroh tamoyil ham ana shu: Ma’naviyatning “oltin qoida”si — ODOB!

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza

Yaqinda bir hujjat izlab, bisotimdagi eski qog‘ozlarni saralayotsam, qachonlardir ish stolimga ko‘rinarli qilib osib qo‘yganim — “Oltin qoida: olitini bor odam qoidalarni joriy qiladi!” degan bitikni topib oldim. Bu odat o‘spirinlik chog‘imdan bor: ko‘nglingma yoqqan biror da’vatni o‘zingma hamroh qilaman. Dastlab “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” maqolini shior qilib olgandim. O‘ylab qarasam, bu juda pessimistik ruhdagi aqida ekan. Keyin shu oltin mavzusini “oltin qoida” sifatida tanlagan edim. Hozir esa tepamda niqtab turadigan, yoshimga yarasha boshqa tamoyillarim bor. Bu haqida quyiroqda so‘z yuritamiz.

O‘sha topilma bahona bo‘ldiyu, ayrim xotiralar yodga tushdi va “oltin qoida” ang-lamasi bilan batafsilroq tanishish istagi tug‘ildi. Bir kuni bizdan 5-6 yosh kattaroq bo‘lgan bilimli, og‘ir-bosiq va hazilqash hamkasbimizning xonasiga kirdim. Osganiga ko‘p bo‘lmagan shekilli, devorda qog‘ozga rus tilida katta harflar bilan yozib qo‘yilgan bitikka ilk bor ko‘zim tushdi: “Золотое правило: правила устанавливает тот, у кого есть золото!”.

Yozuvga qarab turganimni ko‘rib, zavqi kelgan aka gap qotdi:

— Dono gap-a?
— O‘zingiz o‘ylab topdingizmi?
— Bunday aqlii gaplarning hammasi bizgacha o‘ylab topib bo‘lingan, — deya faylasufona mushohada qildi akamiz. — Bizning vazifamiz esa, bu jumalalar mag‘zini chaqish va ma’qul kelsa, amal qilishdir.

Ancha yosh ekanmanmi, yarim hazil, yarim chin qabilida aytilgan bu gaplar ta’sirida mazkur oltin qoidani o‘zbekchaga tarjima qilib olgandim. Vaqt o‘tib, xonamga aka ham kirib qoldi.



— Yaxshimas, bu hikmatning litsenziyasi menda-ku, o‘zlashtirib olibsiz-da. Mayli, hechqursa, o‘zbekchaga tarjima qilibsiz-ku, — deb jilmaydi. — Lekin judayam to‘g‘ri

aqida emas bu. Qamrovni kengroq olish ma’qulga o‘xshaydi.

— Masalon?
— Misol uchun, bunda ko‘proq moddiyatga ustuvorlik berilgan. To‘g‘ri,

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 546.
36390 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 22:30

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05